



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi va mezonlarning baholash ko‘rsatkichlarini hamda hisoblash metodikasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ta’lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-fevraldagi 91-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2024-yil 19-apreldagi 29-sonli majlis bayonida Nodavlat ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o‘tkazishga jalb etilgan ekspertlar mehnatiga belgilangan tartib asosida haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanishi bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini ichki baholash tartibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini tashqi baholash tartibi 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarining baholash ko‘rsatkichlari va umumiy ballarni hisoblash metodikasi 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarining baholash ko‘rsatkichlari va umumiy ballarni hisoblash metodikasi 4-ilovaga muvofiq;

Nodavlat ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o‘tkazishga jalb etilgan ekspertlar mehnatiga soatbay haq to‘lash tartibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) joriy yilning sentabr oyiga qadar o‘rnatilgan tartibda mahalliy va xorijiy malakali mutaxassislarni jalb etgan holda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish (keyingi o‘rinlarda – attestatsiya) jarayonlarida bitiruvchi sinf (4-, 9- va 11-sinflar) o‘quvchilaridan quyidagi nazorat ishlari materiallarini ishlab chiqsin:

4-sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan diktant (65-70 ta so‘z), matematika fanidan yozma ish (3 ta misol va 1 ta masala);

9-11-sinf o‘quvchilariga ona tili va adabiyot, matematika, fizika, kimyo, biologiya, xorijiy til, O‘zbekiston tarixi fanlaridan testologiya me‘yorlariga ko‘ra ko‘p variantlilik asosidagi test sinovi materiallarini tayyorlash;

test sinovi materiallari hamda javob variantlarini elektron shaklda Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentiga taqdim etish;

test sinovi materiallarini tayyorlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash yuzasidan mablag' talabnomasini Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limiga berish vazifalari yuklatilsin.

4. Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limi (I. Xoliqulov) nodavlat ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazishga jalb etilgan ekspertlar mehnatiga belgilangan tartib asosida soatbay haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan talabnomaga asosan o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga nodavlat ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazishga jalb etilgan ekspertlar mehnatiga belgilangan tartib asosida soatbay haq to'lash vazifasi yuklatilsin.

6. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S. Raximboyev)ga

attestatsiya jarayonlarida o'quvchilar bilimini aniqlash uchun tayyorlangan materiallarni hududlarga jo'natish;

baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli) joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bitiruvchi sinf (9- va 11-sinf) o'quvchilarining o'zlashtirish natijalarini hisobga olish;

baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli) joriy etilmagan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bitiruvchi sinf (9- va 11-sinf) o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan tayyorlangan yozma ishlar va test sinov materiallari yordamida aniqlash vazifalari yuklatilsin.

7. Devonxona (H. Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazilishini ta'minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S. Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil "7"-may,
146-son

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish jarayonlarini ichki baholash tartibi

Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda - ta'lim tashkilotlari) faoliyatini ichki baholash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi 91-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga ko'ra, ta'lim tashkilotlari faoliyatini **ichki baholash** muassasa tomonidan o'zini o'zi baholash hisoblanib, uning asosiy maqsadi muassasani tashqi baholashdan o'tkazishga tayyorlashdan iborat.

Asosiy tushunchalar:

soha — ta'lim-tarbiya faoliyatini tasvirlovchi asosiy yo'nalishlar;

mezon — ta'lim tashkilotining faoliyatini sohalar bo'yicha tashkil etishga qo'yiladigan talablar;

ko'rsatkichlar — ta'lim tashkilotida ma'lum bir faoliyat sohasini mezonga erishish uchun nima qilishi kerakligini ko'rsatadigan (tavsiflovchi) kuzatilgan faktlar.

Ichki baholash jarayonida ta'lim tashkiloti faoliyati attestatsiya ko'rsatkichlari va mezonlari asosida baholanib, ta'lim sifati va mazmuni davlat talablari hamda davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi aniqlanadi, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'riladi.

Har yili 1-oktabrga qadar ta'lim tashkilotlarini tashqi attestatsiyadan o'tkazish jadvali vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur jadval asosida attestatsiyadan o'tadigan ta'lim tashkilotlarida tashqi baholash boshlanishidan kamida ikki oy oldin ichki baholash jarayonlari boshlanadi va 24 ish kungacha davom etishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish maqsadida quyidagi bosqichlar asosida ichki baholash amalga oshiriladi:

ichki baholashni o'tkazish yuzasidan komissiya tarkibini shakllantirish;

ichki baholashdan o'tkazish;

baholash natijalari asosida ma'lumotlarni umumlashtirish va hisobot tayyorlash;

ichki baholash natijalarini tashqi baholash komissiyasiga taqdim etish uchun Pedagogik kengash qarorini qabul qilish.

Vazirlikning rasmiy onlayn akkreditatsiya platformasi ishga tushgunga qadar attestatsiyaga oid jadvallar va boshqa hujjatlar ta'lim tashkilotlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyat va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari orqali yetkaziladi.

Ichki baholash komissiyasining faoliyatini rejalashtirish va ichki baholashga tayyorlash

Ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash jarayoni Pedagogik kengash qaroriga asosan ta'lim tashkiloti direktorining buyrug'i bilan tashkil etiladigan ichki baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik kengashining qarori asosida 9 nafardan kam bo'lmagan holda ichki baholash komissiyasi tarkibini quyidagi ko'rinishda shakllantirish maqsadga muvofiq:

a) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida:

maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, komissiya raisi;

metodist, komissiya raisi o'rinbosari;

xo'jalik mudiri, a'zo;

psixolog, a'zo;

tajribali pedagog xodimlar (1-2 nafar), a'zo;
kuzatuv kengashi vakili (1-2 nafar), a'zo;
mahalla fuqarolar yig'ini vakili (1 nafar), a'zo;

b) Umumiy o'rta ta'lim maktablarida:

o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, komissiya raisi;

ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, komissiya raisi o'rinbosari;

xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, a'zo;

chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari, a'zo;

psixolog, a'zo;

fan o'qituvchilari (1-3 nafar), a'zo;

kuzatuv kengashi vakili (1 nafar), a'zo;

mahalla fuqarolar yig'ini vakili (1 nafar), a'zo;

bitiruvchi sinf rahbarlari (1-2 nafar), a'zo.

Ta'lim tashkilotlarida ichki baholashni sifatli tashkil etish komissiyaning faoliyatiga bog'liq bo'lib, xolislik va shaffoflikni ta'minlash ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun jalb etilgan ekspertlar guruhi zimmasiga yuklatiladi.

Komissiya tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi buyruqda quyidagilar ko'rsatiladi:

- har bir komissiya a'zosining F.I.SH. hamda ularga birlashtirilgan vazifalar;

- ichki baholash natijalarini Pedagogik kengashga taqdim qilish muddati.

Ichki baholashga tayyorgarlik ko'rish uchun komissiya a'zolari ishtirokida tashkiliy masalalar bo'yicha yig'ilish o'tkaziladi va yig'ilishda quyidagi masalalar ko'riladi:

• ichki baholash rejasini ishlab chiqish, komissiya a'zolari o'rtasida vazifalar taqsimotini amalga oshirish;

• ichki baholash vositalari va mexanizmlarini aniqlab olish;

• ichki baholash natijalarini umumlashtirish hamda hisobot tayyorlash uchun mas'ullarni belgilash;

• ichki baholash natijalarini muhokama qilishning taxminiy muddatlarini belgilash.

Ichki baholashni o'tkazish metodikasi:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oxirgi ikki yillik faoliyati kompleks tahlil qilish asosida quyidagi sohalari o'rganiladi:

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni;

2. Boshqaruv siyosati va kadrlar salohiyati;

3. Rivojlantiruvchi ta'lim muhiti;

4. Jamoatchilik bilan hamkorlik.

umumiy o'rta ta'lim maktabining oxirgi ikki yillik faoliyati kompleks tahlil qilish asosida quyidagi sohalar o'rganiladi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabini boshqarish;

2. Ta'lim sifati;

3. O'quv jarayonini tashkil etish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi;

4. Muassasada qulay shart-sharoitlarning yaratilganligi va infratuzilmasi;

5. Jamoatchilik bilan hamkorlik va targ'ibot ishlari;

6. Xavfsizlik.

Ichki baholash jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

• maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha tarbiyachilarning mashg'ulotlari, maktablarda barcha o'qituvchilarning dars jarayonlari tahlil qilinadi;

• har bir tayyorlov guruhidan kamida 50 foiz bolalarning rivojlanish darajasi o'rganilib, kuzatuv xaritasidagi natijalarga mosligi, maktablarda barcha 4-11-sinflardan nazorat ishlari tahlil qilinadi;

• jami ota-onalarning kamida 50 foizidan, barcha pedagoglar va xodimlardan hamda o'qituvchilardan ijtimoiy so'rovnomalar o'tkaziladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablar asosida baholash metodikasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablar asosida baholash keltirilgan sohalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotining faoliyati **4 ta** soha, **14 ta** mezon va **41 ta** ko'rsatkich asosida o'rganilib, jami **500 ballik** tizimda baholanadi.

Shu bilan birga, 6-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarni rivojlanishini kuzatish jarayonlari alohida **100 ballik** tizimida baholanadi.

SOHALAR	MEZONLAR
TA'LIM-TARBIYA JARAYONI.	“Ilk qadam” davlat o'quv dasturining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilganligi.
	Tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini kuzatish jarayonining tashkil etilganligi.
	O'quv-metodik materiallarning (tarbiyalanuvchilarda foydalanish imkoniyatining) mavjudligi va qo'llanilish darajasi.
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz, rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitining tashkil etilishi.
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya muhiti (inklyuziya).
BOSHQARUV SIYOSATI VA KADRLAR SALOHİYATI.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini belgilovchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida boshqaruvning tashkil etilganligi.
	Rahbar va tarbiyachi pedagog kadrlar salohiyati.
	Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvatiga mutanosibliigi.
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITI.	Moddiy-texnik bazaning holati va tarbiyalanuvchilar rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar.
	Tarbiyaviy ishlar samaradorligi.
	AKT bilan ta'minlanganlik darajasi va infratuzilmasi.
	Ovqatlantirish tizimining mavjud sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq tashkil etilganligi.
JAMOATCHILIK VA HAMKORLIK.	Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik ishlari.
	Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik ishlari

Mezonlarga ajratilgan ballar, ularga ega bo'lish shartlari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablar asosida quyidagi baholash metodikasiga muvofiq belgilanadi.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONI

Ushbu asosiy soha **5 ta mezon** va **11 ta ko'rsatkich** orqali o'rganiladi va **200 ball** bilan baholanadi.

1-mezon. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilganligi (90 ball).

1-ko'rsatkich. Dasturning tatbiq qilinganligi (50 ball).

Dasturning tatbiq qilinganligi.	50
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq tashkil etilgan. (1.1.1- jadval natijasiga ko'ra 4,6-5 ball).</i>	50
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq to'liq tashkil etilmagan. (1.1.1- jadval natijalariga ko'ra 4-4,5 ball).</i>	25
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq qisman tashkil etilgan. (1.1.1- jadval natijalariga ko'ra 3,6-3,9 ball).</i>	15
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga</i>	0

muvofiq tashkil etilmagan. (1.1.1-jadval natijalariga ko'ra 3,5 va undan past ball).	
--	--

2-ko'rsatkich. Tarbiyachilar tomonidan mavzuli reja asosida ta'lim-tarbiya jarayonlari tashkil etilishi (**10 ball**).

Tarbiyachilar tomonidan mavzuli reja asosida ta'lim-tarbiya jarayonlari tashkil etilishi.	10
<i>Tarbiyachilarning ish jurnalida yillik mavzuviy rejasi tegishli tartibda oylar, kunlar kesimida taqsimlangan.</i>	10
<i>Tarbiyachilarning ish jurnalida yillik mavzuviy rejasi tegishli tartibda oylar, kunlar kesimida taqsimlanmagan.</i>	0

3-ko'rsatkich. Ta'lim-tarbiya jarayonida variativ va parsial dasturlardan foydalanilayotganligi (**10 ball**).

Ta'lim-tarbiya jarayonida variativ va parsial dasturlardan foydalanilayotganligi.	10
<i>Ta'lim-tarbiya jarayonida variativ va parsial dasturlar qo'llanilmoqda.</i>	10
<i>Variativ va parsial dasturlardan biri tatbiq qilingan.</i>	5
<i>Variativ va parsial dasturlar qo'llanilmaydi.</i>	0

4-ko'rsatkich. 5 ta rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilganligi va ularda bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilganligi (**20 ball**).

5 ta rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilganligi va ularda bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilganligi.	20
<i>5 ta rivojlantirish markazi shakllantirilgan va ularda bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilgan.</i>	20
<i>5 ta rivojlantirish markazi shakllantirilgan, ammo bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilmagan.</i>	10
<i>Shakllantirilmagan.</i>	0

2-mezon. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini kuzatish jarayoni tashkil etilganligi (60 ball).

5-ko'rsatkich. 6-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning kuzatuv kunida ko'rsatkichlarni bajara olishining rivojlanish xaritasida qayd etilgan natijalarga mosligi (**30 ball**).

6-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarning kuzatuv kunida ko'rsatkichlarni bajara olishining rivojlanish xaritasida qayd etilgan natijalarga mosligi.	30
<i>Bolaning rivojlanish xaritasidagi o'zlashtirish natijalari kuzatuv kunidagi natijalarga mos (2.5.1.-jadval natijalari asosida, indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o'rtasidagi farq-25% va undan kam bo'lsa).</i>	30
<i>Bolaning rivojlanish xaritasidagi o'zlashtirish natijalari kuzatuv kunidagi natijalarga qisman mos (2.5.1.-jadval natijalari asosida indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o'rtasidagi farq-25%-45% bo'lsa).</i>	15
<i>Bolaning rivojlanish xaritasidagi o'zlashtirish natijalari kuzatuv kunidagi natijalarga qisman mos (2.5.1.-jadval natijalari asosida indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o'rtasidagi farq- 45% dan ko'p bo'lsa).</i>	0

6-ko'rsatkich. Tarbiyalanuvchilarning kuzatishlari natijasida olingan ma'lumotlar asosida ta'lim va tarbiya jarayoni rejalashtirilganligi (mutaxassislarga yo'naltirilganligi) (**20 ball**).

Tarbiyalanuvchilarning kuzatishlari natijasida olingan ma'lumotlar asosida ta'lim va tarbiya jarayoni rejalashtirilganligi (mutaxassislarga yo'naltirilganligi).	20
<i>Rivojlanish sohalari bo'yicha kuzatuv natijalariga asosan tarbiyalanuvchilar tashkilotdagi tegishli mutaxassislarga yo'naltirilgan.</i>	20
<i>Rivojlanish sohalari bo'yicha kuzatuv natijalariga asosan tarbiyalanuvchilar tashkilotdagi tegishli mutaxassislarga yo'naltirmagan.</i>	0

7-ko'rsatkich. 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi (**10 ball**).

6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi.	10
<i>6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi 5 ta rivojlanish sohalari asosida yuritilgan va ota-onalarga tarqatilgan.</i>	10
<i>6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi 5 ta rivojlanish sohalari asosida yuritilgan va ota-onalarga tarqatilmagan.</i>	5
<i>6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi 5 ta rivojlanish sohalari asosida</i>	0

yuritilmagan va ota-onalarga tarqatilmagan.	
---	--

3-mezon. O'quv-metodik materiallarning (tarbiyalanuvchilarda foydalanish imkoniyatining) mavjudligi va qo'llanilish darajasi (10 ball).

8-ko'rsatkich. O'quv-metodik materiallari bilan ta'minlanganligi va rivojlanish sohasiga mosligi (10 ball).

O'quv-metodik materiallari bilan ta'minlanganligi va rivojlanish sohasiga mosligi.	10
<i>O'quv-metodik materiallari bilan ta'minlangan va rivojlanish sohasiga mos.</i>	10
<i>O'quv-metodik materiallari bilan yetarli ta'minlanmagan.</i>	5

4-mezon. Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz, rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitining tashkil etilishi (30 ball).

9-ko'rsatkich. Tashkilotda kun tartibi ishlab chiqilganligi va sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligi (15 ball).

Tashkilotda kun tartibi ishlab chiqilganligi va sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligi.	15
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va barcha uchun ko'rinarli joyga ilingan.</i>	15
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ishlab chiqilgan, lekin barcha uchun ko'rinarli joyga ilinmagan.</i>	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi ishlab chiqilmagan.</i>	0

10-ko'rsatkich. Bolalar uchun xavfsiz muhitni ta'minlanganligi hamda hududda ekologik ta'lim va tarbiya yo'lga qo'yilganligi (ekologik yo'lakcha) (15 ball).

Bolalar uchun xavfsiz muhitni ta'minlanganligi hamda hududda ekologik ta'lim va tarbiya yo'lga qo'yilganligi (ekologik yo'lakcha).	15
<i>Bolalarning hayoti va xavfsizligi ta'minlangan hamda hududda ekologik ta'lim va tarbiya yo'lga qo'yilgan (ekologik yo'lakcha).</i>	15
<i>Bolalarning hayoti va xavfsizligi ta'minlangan, ammo hududda ekologik muhit mavjud emas.</i>	10
<i>Bolalarning hayoti va xavfsizligi ta'minlanmagan.</i>	0

5-mezon. Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya muhiti (inklyuziya) (10 ball).

11-ko'rsatkich. Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirilganligi (10 ball).

Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirilganligi.	10
<i>Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirilgan.</i>	10
<i>Bolaning individual ta'lim marshruti mavjud, ammo belgilangan tartibda yuritilmayapti.</i>	3
<i>Bolaning individual ta'lim marshruti mavjud emas hamda korreksion ishlar olib borilmagan.</i>	0

BOSHQARUV SIYOSATI VA KADRLAR SALOHİYATI

Ushbu asosiy soha **3 ta mezon** va **15 ta ko'rsatkich** orqali o'rganiladi va **150 ball** bilan baholanadi.

6-mezon. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini belgilovchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida boshqaruvning tashkil etilganligi (50 ball).

12-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan uch yillik istiqbol rejasini (5 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan uch yillik istiqbol rejasining mavjudligi.	5
<i>Uch yillik istiqbol va unga muvofiq lashtirilgan oylik rejalari pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan va joriy qilingan.</i>	5
<i>Uch yillik istiqbol reja mavjud, ammo pedagogik kengashda muhokama qilinmagan.</i>	2
<i>Istiqbol reja mavjud emas.</i>	0

13-ko‘rsatkich. Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid xujjatlari (10 ball).

Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid xujjatlari	10
<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlari mavjud, to‘g‘ri va maqsadli yuritilgan.</i>	10
<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar mavjud, lekin to‘g‘ri yuritilmagan.</i>	0

14-ko‘rsatkich. Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlardan olingan so‘rovnoma (5 ball).

Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlardan olingan so‘rovnoma va uning natijalari.	5
<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan ijobiy baholanganda.</i>	5
<i>Maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan qoniqarsiz baholanganda.</i>	0

15-ko‘rsatkich. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori ish hujjatlari (5 ball).

Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori ish hujjatlari.	5
<i>Direktorning tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to‘g‘ri yuritilgan.</i>	5
<i>Direktorning tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, ammo to‘g‘ri yuritilmagan.</i>	2

16-ko‘rsatkich. Maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti va psixologining ish hujjatlari (5 ball).

Maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti va psixologining ish hujjatlari.	5
<i>Metodist va psixologning tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to‘g‘ri yuritilgan.</i>	5
<i>Metodist va psixologning tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, ammo to‘g‘ri yuritilmagan.</i>	2

17-ko‘rsatkich. Maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi va til o‘qituvchisining ish hujjatlari (5 ball).

Maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi va til o‘qituvchisining ish hujjatlari.	5
<i>Defektolog va til o‘qituvchisining tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to‘g‘ri yuritilgan.</i>	5
<i>Defektolog va til o‘qituvchisining tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to‘g‘ri yuritilmagan.</i>	2

18-ko‘rsatkich. Maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va musiqa rahbarining ish hujjatlari (5 ball).

Maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va musiqa rahbarining ish hujjatlari.	5
<i>Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va musiqa rahbarining tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to‘g‘ri yuritilgan.</i>	5
<i>Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi va musiqa rahbarining tasdiqlangan ro‘yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to‘g‘ri yuritilmagan.</i>	2

19-ko‘rsatkich. “Pedagogik kouching” hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi (5 ball).

“Pedagogik kouching” hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi.	5
<i>“Pedagogik kouching” hamkorligi bo‘yicha buyruq ishlab chiqilgan va ijrosi ta‘minlangan, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hujjatlar to‘plami mavjud.</i>	5
<i>“Pedagogik kouching” hamkorligi tashkil etilgan, ammo ijrosi ta‘minlanmagan .</i>	2
<i>“Pedagogik kouching” hamkorligi tashkil etilmagan .</i>	0

20-ko‘rsatkich. Ichki baholash tizimi yo‘lga qo‘yilganligi (5 ball).

Ichki baholash tizimi yo‘lga qo‘yilganligi.	5
<i>O‘quv yili yakuniga ko‘ra ichki baholash jarayonlari o‘tkazilgan, natijalariga ko‘ra hujjatlar yig‘majildi mavjud.</i>	5

<i>O'quv yili yakuniga ko'ra ichki baholash jarayonlari o'tkazilmagan.</i>	0
--	---

7-mezon. Rahbar va tarbiyachi pedagog kadrlar salohiyati (70 ball).

21-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi oliy ma'lumotli pedagoglar ulushi (20 ball).

Oliy ma'lumotli va malaka toifali pedagoglar ulushi.	20
<i>85-100 %ni tashkil etsa.</i>	20
<i>65-84 %ni tashkil etsa.</i>	10
<i>50-64 %ni tashkil etsa.</i>	5
<i>49 % va undan kam bo'lsa.</i>	0

22-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga ajratilgan shtat birligi bo'yicha xodimlar bilan to'ldirilganlik holati (20 ball).

Ajratilgan shtat birligi bo'yicha xodimlar bilan to'ldirilganlik holati.	20
<i>86-100 % ni tashkil etadi.</i>	10
<i>71-85 %ni tashkil etadi.</i>	5
<i>56-70 %ni tashkil etadi.</i>	3
<i>55 % va undan kam.</i>	0

23-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining lavozimi bo'yicha malaka talablariga mosligi (20 ball).

Pedagoglarning lavozimi bo'yicha malaka talablari.	20
<i>Barcha pedagoglar malaka toifasiga mos.</i>	20
<i>Bir nafar pedagog nomutaxassis bo'lsa ham.</i>	0

24-ko'rsatkich. Pedagoglar va ularning tarbiyalanuvchilari turli darajadagi tanlov va musobaqalardagi natijalari (10 ball).

Pedagoglar va ularning tarbiyalanuvchilari tomonidan turli darajadagi tanlov va musobaqalardagi natijalari.	10
<i>Respublika bosqichida sovrinli o'rinlarni olgan pedagoglar (1-, 2-, 3-o'rinlar).</i>	10
<i>Viloyat (shahar) bosqichida sovrinli o'rinlarni olgan pedagoglar (1-, 2-, 3-o'rinlar).</i>	6
<i>Tuman (shahar) bosqichida sovrinli o'rinlarni olgan pedagoglar (1-, 2-, 3-o'rinlar).</i>	2
<i>Umuman qatnashmagan.</i>	0

8-mezon. Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvatiga mutanosibliigi (30 ball).

25-ko'rsatkich. Tarbiyalanuvchilarning soni maktabgacha ta'lim tashkiloti belgilangan quvvatiga muvofiqligi (20 ball).

Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvatiga mutanosibliigi.	20
<i>Tarbiyalanuvchilarning soni quvvatga muvofiq.</i>	20
<i>Tarbiyalanuvchilarning soni quvvatga nisbatan 1.1-1.2 koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.</i>	15
<i>Quvvatga nisbatan 1.2-1.5 koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.</i>	10
<i>Quvvatga nisbatan 2 barobar ortiq koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.</i>	5
<i>Tarbiyalanuvchilarning soni quvvatdan past koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.</i>	2

26-ko'rsatkich. Tarbiyalanuvchilarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnashi (10 ball).

Tarbiyalanuvchilar davomati (bir haftalik davomatning o'rtachasi).	10
<i>Davomat 86 % va undan yuqori bo'lsa.</i>	10
<i>Davomat 65 % – 85 % oralig'ida bo'lsa.</i>	5
<i>Davomat 51 % – 65 % oralig'ida bo'lsa.</i>	2
<i>Davomat 50 % va undan past bo'lsa.</i>	0

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITI

Ushbu asosiy soha **4 ta mezon** va **11 ta ko'rsatkich** orqali hamda **125 ball** bilan baholanadi.

9-mezon: Moddiy-texnika bazaning holati va tarbiyalanuvchilar rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar (50 ball).

27-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining ta'mirlanganligi (**5 ball**).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining ta'mirlanganligi.	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining saqlanishi qoniqarli holatda.</i>	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining foydalanish qismida yaroqsiz holga kelgan joy mavjud bo'lsa.</i>	0

28-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkiloti toza ichimlik suvi tizimiga ega ekanligi (5 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi.	5
<i>Uzluksiz ichimlik suvi bilan ta'minlangan (quvurlar orqali).</i>	5
<i>Bir kunda cheklangan muddatlarda suv bilan ta'minlangan.</i>	3
<i>Yer osti artezian quduqlari orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan.</i>	2
<i>Suv tashib keltiriladi (maxsus texnika, suv saqlash hovuzi va boshqa vositalar orqali).</i>	1
<i>Toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan (tashib keltirish qiyin yoki suv saqlash imkoniyati mavjud emas).</i>	0

29-ko'rsatkich. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati (5 ball).

Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'yinchoqlar bilan ta'minlanganligi.	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkiloti va guruhlar o'yinchoqlar, jihozlar bilan yetarli ta'minlangan va sanitariya talablariga mos.</i>	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkiloti va guruhlar o'yinchoqlar, jihozlar bilan yetarli ta'minlangan, lekin sanitariya talablariga mos emas.</i>	2
<i>Maktabgacha ta'lim tashkiloti va guruhlar o'yinchoqlar, jihozlar bilan ta'minlanmagan.</i>	0

30-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududining obodonlashtirilganligi (5 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkilotida obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilganligi, hududning guruhlarga taqsimlanganligi, ularning tartib bilan belgilanganligi (tablichkalar).	10
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilgan, hududning guruhlarga taqsimlangan, ular tartib bilan belgilangan.</i>	10
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilgan, hududning guruhlarga taqsimlanmagan.</i>	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida obodonlashtirish ishlari tashkil etilmagan.</i>	0

31-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasi va holati (10 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasi va holati: 1. ma'muriy-metodik va yordamchi xonalar (stol, stul, kompyuter, proyektor va x.k.); 2. guruh xonalari, yotoqxona, musiqa va sport xonasi zarur jihozlar (pianino, musiqa asboblari, sport inventarlari, mebellar, gilamlar); 3. boshqa jihozlar bilan bola soni inobatga olingan; 4. bolalar ko'ngilochar majmuasining mavjud (sirpanchiq, arg'imchoq, mavzuli uycha, shved gimnastik narvonchasi, ertaksimon uyalar).	10
<i>Yuqorida berilgan barcha jihozlar mavjud.</i>	10
<i>Yuqorida berilgan jihozlardan kamida bittasi bo'lmasa.</i>	5
<i>Ma'muriy-metodik va yordamchi xonalar mavjud emas.</i>	0

32-ko'rsatkich. Xavfsiz sharoit yaratilganligi (ichki-tashqi kameralar, atrof o'ralganligi, yong'in xavfsizligini ta'minlash vositalarining mavjudligi, favqulodda vaziyatlarda harakatlanishi) (15 ball).

Xavfsiz sharoit yaratilganligi: 1. ichki-tashqi kameralar borligi; 2. atrof o'ralganligi; 3. yong'in xavfsizligini ta'minlash vositalarining mavjudligi; 4. favqulodda vaziyatlarda harakatlanish sxemasi mavjudligi.	15
<i>Xavfsiz sharoit yaratilganligi bo'yicha yuqoridagi 4 ta holat ham mavjud va ish jarayonida.</i>	15
<i>Yuqorida ko'rsatilgan holatlardan eng kamida bittasi mavjud yoki ish jarayonida bo'lmasa.</i>	10
<i>Yuqorida ko'rsatilgan holatlardan barchasi bo'lmasa.</i>	6

33-ko'rsatkich. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar (shaxslar) to'siqsiz harakatlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilganligi (5 ball).

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar (shaxslar) to'siqsiz harakatlanishi uchun maxsus stol va moslamali stul, yumshoq to'shama (matras), davolovchi maxsus bo'rtma yo'lakchalar mavjudligi.	5
<i>Xonalarda tarbiyalanuvchi uchun maxsus stol va moslamali stul, yumshoq to'shama (matras), davolovchi maxsus bo'rtma yo'lakchalar mavjud.</i>	5
<i>Xonalarda tarbiyalanuvchi uchun yuqorida talab etilgan jihozlardan bittasi bo'lmasa ham.</i>	2
<i>Zarur sharoitlar yaratilmagan.</i>	0

10-mezon. Tarbiyaviy ishlar samaradorligi (10 ball).

34-ko'rsatkich. Xodimlar uchun odob-axloq va ichki mehnat tartibi qoidalari tasdiqlanganligi va unga amal qilinishi (10 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining odob-axloq va ichki mehnat tartibi qoidalari tasdiqlanganligi va unga amal qilinishi.	10
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar o'tkazilgan va odob-axloq qoidalari rioya etilmoqda.</i>	10
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida namunaviy odob-axloqiy qoidalari mavjud, ammo tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbirlar o'tkazilmagan.</i>	5
<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida namunaviy odob-axloqiy qoidalari amal qilinmagan.</i>	0

11-mezon. AKT bilan ta'minlanganlik darajasi va infratuzilmasi (20 ball).

35-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kompyuterlar bilan ta'minlanganligi (20 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkilotining kompyuterlar bilan ta'minlanganligi.	20
<i>Ma'muriyat xodimlari xonalarida kompyuter to'plami mavjud.</i>	20
<i>Kompyuterlar mavjud, ammo so'nggi 5 yilda yangilanmagan.</i>	10
<i>Ma'muriyat xodimlaridan eng kamida bir nafariga kompyuter berilmagan.</i>	5
<i>Kompyuterlar mavjud emas.</i>	0

12-mezon. Ovqatlantirish tizimining mavjud sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq tashkil etilganligi (40 ball).

36-ko'rsatkich. Ovqatlantirish "Yagona mavsumiy taomnoma" asosida tashkil etilganligi (15 ball).

Ovqatlantirish "Yagona mavsumiy taomnoma" asosida tashkil etilganligi.	15
<i>"Aqlvoy-oshpaz, bog'chalar uchun taomlar retsepti" asosida taom tayyorlash texnologiyasiga, barcha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilgan.</i>	15
<i>Bog'chalar uchun taomlar retsepti asosida taom tayyorlash texnologiyasiga rioya qilingan, ammo sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos emas.</i>	10
<i>"Aqlvoy-oshpaz, bog'chalar uchun taomlar retsepti" asosida taom tayyorlash texnologiyasiga, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilinmagan hamda oshpazlar malaka toifalariga ega emas.</i>	0

37-ko'rsatkich. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda me'yoriy hamda ish hujjatlarining yuritilishi (25 ball).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda me'yoriy hamda hamshiraning ish hujjatlarini yuritilishi.	25
<i>Oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar sifati haqidagi ma'lumotlarni qayd etish Brakeraj daftari mavjud va o'rnatilgan tartibda yuritilmoqda.</i>	25
<i>Sifati tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftari mavjud va o'rnatilgan tartibda yuritilmayapti.</i>	10
<i>Brakeraj komissiyasining tarkibi amaldagi talablar asosida to'g'ri tuzilmagan va faoliyat olib bormayapti.</i>	0

JAMOATCHILIK VA HAMKORLIK

Ushbu soha **2 ta mezon** va **4 ta ko'rsatkich** orqali hamda **30 ball** baholanadi.

13-mezon. Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik ishlari (20 ball).**38-ko'rsatkich.** Kuzatuv kengashi faoliyatining yo'lga qo'yilganligi (10 ball).

Kuzatuv kengashi faoliyatining yo'lga qo'yilganligi.	10
<i>Kuzatuv kengashi Nizom asosida tashkil etilgan va faoliyati yo'lga qo'yilgan.</i>	10
<i>Kuzatuv kengashi tashkil etilgan, ammo Nizom talablariga javob bermaydi.</i>	5
<i>Kuzatuv kengashi Nizom asosida tashkil etilgan, ammo faoliyati yo'lga qo'yilmagan (hujjatlar to'plami mavjud emas).</i>	0

39-ko'rsatkich. Mahalla va maktab bilan hamkorlik rejasining mavjudligi (5 ball).

Mahalla va maktab bilan hamkorlik rejasining mavjudligi.	5
<i>Mahalla va maktab bilan hamkorlik rejasi mavjud va tasdiqlangan rejaga asosan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar bazasi yaratilgan.</i>	5
<i>Mahalla va maktab bilan hamkorlik rejasi mavjud, ammo ijrosi ta'minlanmagan, hujjatlar to'plami mavjud emas.</i>	2
<i>Mahalla va maktab bilan hamkorlik rejasi mavjud emas.</i>	0

40-ko'rsatkich. Boshqa tashkilotlar bilan olib borilayotgan ishlar (5 ball).

Tashkilot faoliyatining ota-onalar tomonidan baholanishi.	5
<i>Tashkilot faoliyati bo'yicha ota-onalarning fikri (3-ilovaga asosan 4,6-5 balgacha).</i>	5
<i>Tashkilot faoliyati bo'yicha ota-onalarning fikri (3-ilovaga asosan 4-4,5 balgacha).</i>	3
<i>Tashkilot faoliyati bo'yicha ota-onalarning fikri (3-ilovaga asosan 3,6-3,9 balgacha).</i>	1

14-mezon. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik ishlari (10 ball).**41-ko'rsatkich.** Tashkilot faoliyatining OAVlarda yoritilganligi (10 ball).

Tashkilot faoliyatining OAVlarda yoritilganligi.	10
<i>Ijtimoiy tarmoqlarda o'z kanaliga ega (Telegramm, Facebook, Instagram) va unda faol.</i>	10
<i>Ijtimoiy tarmoqlarda o'z kanaliga ega (Telegramm, Facebook, Instagram) ammo unda faollik yo'q.</i>	5
<i>Ijtimoiy tarmoqlarda o'z kanaliga ega emas.</i>	0

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR ASOSIDA BAHOLASH METODIKASI

Umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyati **6 ta soha, 13 ta mezon va 48 ta ko'rsatkich** orqali baholash amalga oshiriladi hamda **1000 ballik** tizimda baholanadi.

Shu bilan birga, bitiruvchi sinf o'quvchilaridan olinadigan nazorat ishlari alohida **100 ballik** tizimida baholanadi.

Ichki baholash jarayonlari umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariyati tomonidan har yili o'tkaziladi hamda platformaga kiritilib boriladi.

SOHALAR	MEZONLAR
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABINI BOSHQARISH.	Umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish.
	Rahbariyat faoliyati va strategik rejalashtirish.
TA'LIM SIFATI.	O'qituvchilar faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
	Maktab o'quvchilarining akademik natijalarini baholash.
	Maktab o'quvchilarining noakademik natijalarini baholash.
O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH HAMDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGI.	O'quv jarayonining tashkil etilishini baholash.
	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi.
MUASSASADA QULAY SHART-SHAROITLARNING YARATILGANLIGI VA INFRATUZILMASI.	Maktabda laboratoriya tajribalari va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish imkoniyatining mavjudligi.
	Umumiy o'rta ta'lim maktabida axborot texnologiyalari infratuzilmasi.

JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK VA TARG'IBOT ISHLARI.	Ota-onalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganligi.
	Targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yilganligi.
XAVFSIZLIK.	Maktab hududining kuzatuv kameralari bilan qamrab olinganligi.
	Ta'lim muassasasida o'quvchilar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratilganligi.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABINI BOSHQARISH

Ushbu soha **2 ta mezon** va **8 ta ko'rsatkich** asosida o'rganiladi va **120 ball** bilan baholanadi.

1-mezon. Umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish (90 ball).

1-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi davlat xizmatlari markazidan ro'yxatdan o'tkazilganligi (**10 ball**).

Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi tasdiqlanganligi.	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi belgilangan tartib asosida tayyorlangan va tasdiqlangan.</i>	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi mavjud, belgilangan tartib asosida tayyorlanmagan.</i>	3
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi mavjud emas.</i>	0
Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi davlat xizmatlari markazidan ro'yxatdan o'tkazilganligi.	5
<i>Belgilangan tartib asosida tasdiqlangan va davlat xizmatlari markazidan ro'yxatdan o'tkazilgan.</i>	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi mavjud, davlat xizmatlari markazidan ro'yxatdan o'tkazilmagan.</i>	3
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi ustavi mavjud emas.</i>	0

2-ko'rsatkich. 1-sinfga o'quvchilar qabuli, o'quvchilar harakati va sinfdagi o'quvchilar soni tahlili (onlayn va an'anaviy) (**25 ball**).

1-sinf o'quvchilar qabuli tahlili (rejaga nisbatan qabul qilinganlar soni, ariza va buyruqlar, 7 yoshga to'lmaganlar qabul qilinganligi).	10
<i>Belgilangan mikrouchastkalaridan qabul qilingan, ariza va buyruqlar to'g'ri rasmiylashtirilgan.</i>	10
<i>Belgilangan mikrouchastkalardan tashqari ruxsatsiz boshqa mikrouchastkalardan o'quvchilar qabul qilingan.</i>	5
<i>7 yoshga to'lmaganlar qabul qilingan.</i>	0
O'quvchilarni bir umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshqasiga ko'chirish bo'yicha arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqilishi.	5
<i>O'quvchilarni bir umumiy o'rta ta'lim maktabidan boshqasiga ko'chirish bo'yicha arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqilgan.</i>	5
<i>Arizalarni ko'rib chiqish muddatlari buzilgan.</i>	3
<i>Arizalar umuman ko'rib chiqilmagan.</i>	0
Sinflarda o'quvchilar soni me'yorda bo'lishi (35 nafardan oshmasligi).	10
<i>Sinflarda o'quvchilar soni me'yorda.</i>	10
<i>Sinflarda o'quvchilar soni 2-5 nafardan ortiq.</i>	5
<i>Sinflarda o'quvchilar soni 5-10 nafardan ortiq.</i>	0

3-ko'rsatkich. ERP tizimiga maktab ma'lumotlari to'g'ri kiritilganligi (**20 ball**).

ERP tizimiga umumiy o'rta ta'lim maktabi: 1. o'quvchi o'rni; 2. o'quvchilar soni; 3. sinflar soni; 4. ta'lim olish tili; 5. navbatliligi; 6. o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilganligi.	20
<i>ERP tizimiga umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'yicha barcha 6 ta holat to'g'ri kiritilgan.</i>	20
<i>ERP tizimiga umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'yicha 5 ta holat to'g'ri kiritilgan.</i>	15
<i>ERP tizimiga umumiy o'rta ta'lim maktabi bo'yicha 4 ta holat to'g'ri kiritilgan.</i>	10

ERP tizimiga umumiy o'rtta ta'lim maktabi bo'yicha 3 ta holat to'g'ri kiritilgan.	5
ERP tizimiga umumiy o'rtta ta'lim maktabi bo'yicha 2 ta holat to'g'ri kiritilgan.	3
ERP tizimiga umumiy o'rtta ta'lim maktabi bo'yicha 1 ta holat to'g'ri kiritilgan.	2
ERP tizimiga umuman ma'lumotlar kiritilmagan.	0

4-ko'rsatkich. Umumiy o'rtta ta'lim maktabi bitiruvchilari uchun "A'lo darajali" shahodatnoma hamda oltin va kumush medallarga buyurtmalar to'g'ri berilganligi (15 ball).

9-sinf bitiruvchilari uchun "A'lo darajali" shahodatnomalarga nizom talablariga muvofiq buyurtma berilganligi.	5
9-sinf bitiruvchilari uchun "A'lo darajali" shahodatnomalarga nizom talablariga muvofiq buyurtma berilgan.	5
Berilgan buyurtmada 1 ta xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
Berilgan buyurtmada 2-4 ta xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	2
Berilgan buyurtmada 5-9 ta xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	1
Berilgan buyurtmada 10 ta va undan ko'p xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa yoki umuman "A'lo darajali" shahodatnoma oluvchilar bo'lmasa.	0
11-sinf bitiruvchilari uchun oltin va kumush medallarga nizom talablariga muvofiq buyurtma berilganligi.	10
11-sinf bitiruvchilari uchun oltin va kumush medallarga nizom talablariga muvofiq buyurtma berilgan.	10
Berilgan buyurtmada 1 ta xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	8
Berilgan buyurtmada 2-4 ta xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	6
Berilgan buyurtmada 5-9 ta xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	4
Berilgan buyurtmada 10 ta va undan ko'p xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa yoki umuman oltin va kumush medal oluvchilar bo'lmasa.	0

5-ko'rsatkich. Umumiy o'rtta ta'lim maktabi bitiruvchilariga shahodatnoma berilishi tahlili. Dublikat shahodatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari reglamentga muvofiq ko'rsatilganligi (20 ball).

Umumiy o'rtta ta'lim maktabi bitiruvchilariga shahodatnoma berish bo'yicha pedagogik kengash qarori mavjudligi va bitiruvchilar ro'yxati shahodatnoma bo'yicha elektron tizimiga to'g'ri kiritilganligi (bitiruvchilar bo'lmagan holatda, mazkur ko'rsatkich umuman olinmaydi).	10
Bitiruvchilarga shahodatnoma berish bo'yicha pedagogik kengash qarori mavjud va bitiruvchilar ro'yxati shahodatnoma bo'yicha elektron tizimiga to'g'ri kiritilgan.	10
Bitiruvchilarga shahodatnoma berish bo'yicha pedagogik kengash qarori mavjud va bitiruvchilar ro'yxati shahodatnoma bo'yicha elektron tizimiga to'g'ri kiritilmagan.	5
Bitiruvchilarga shahodatnoma berish bo'yicha pedagogik kengash qarori mavjud emas.	0
Dublikat shahodatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari reglamentga muvofiq (muddati, xulosasi) ko'rsatilganligi.	10
Dublikat shahodatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari reglamentga muvofiq (muddati, xulosasi) ko'rsatilgan.	10
Dublikat shahodatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari reglamentiga rioya qilinmagan.	5
Davlat xizmatlari reglamentiga rioya qilinmagan hamda dublikat shahodatnoma berilishida sansalorlikka yo'l qo'yilgan.	0

2-mezon. Rahbariyat faoliyati va strategik rejalashtirish (30 ball).

6-ko'rsatkich. Umumiy o'rtta ta'lim maktabi faoliyatida rahbariyatining roli va mas'uliyati (10 ball).

Umumiy o'rtta ta'lim maktabini boshqarish normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilganligi va maktab jamoasiga yetkazilgan.	5
Umumiy o'rtta ta'lim maktabini boshqarish normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilgan va maktab jamoasiga yetkazilgan.	5
Umumiy o'rtta ta'lim maktabini boshqarish normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilgan, ammo maktab jamoasiga yetkazilmagan.	3
Umumiy o'rtta ta'lim maktabini boshqarish normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilmagan.	0
Umumiy o'rtta ta'lim maktabi rahbariyati o'z faoliyatini o'quvchilarni sifatli ta'lim olishlari hamda maktabda ijobiy muhitni shakllantirish uchun vakolatlari va	5

majburiyatlari doirasida namunalni tashkil etganligi.	
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariyati o'z faoliyatini o'quvchilarni sifatli ta'lim olishlari hamda maktabda ijobiy muhitni shakllantirish uchun vakolatlari va majburiyatlari doirasida namunalni tashkil etgan.</i>	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariyati o'z faoliyatini o'quvchilarni sifatli ta'lim olishlari hamda maktabda ijobiy muhitni shakllantirish uchun vakolatlari va majburiyatlari doirasida tashkil etilmagan.</i>	3
<i>Umuman mavjud emas.</i>	0

7-ko'rsatkich. Strategik rejalashtirish (10 ball).

Umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyatini tahlil qilish, jamoatchilik so'rovlarini tashkil etish orqali tuzilgan rivojlanish bo'yicha strategik rejaning mavjudligi.	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyatini tahlil qilish, jamoatchilik so'rovlarini tashkil etish orqali tuzilgan rivojlanish bo'yicha strategik reja mavjud.</i>	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyati rejasi mavjud, ammo tahlil qilish, jamoatchilik so'rovlari asosida tuzilmagan.</i>	3
<i>Umuman reja mavjud emas.</i>	0
Rahbariyatning (shu jumladan, birlashmalar, kengashlarning) ish rejalari qo'yilgan maqsadlarga muvofiqligi, ularni jamoatchilik e'tiboriga yetkazilganligi.	5
<i>Rahbariyatning (shu jumladan, birlashmalar, kengashlarning) ish rejalari qo'yilgan maqsadlarga muvofiq va jamoatchilik e'tiboriga yetkazilgan.</i>	5
<i>Rahbariyatning (shu jumladan, birlashmalar, kengashlarning) ish rejalari qo'yilgan maqsadlarga muvofiq, ammo kamida bittasiniki jamoatchilik e'tiboriga yetkazilmagan.</i>	3
<i>Rahbariyatning (shu jumladan, birlashmalar, kengashlarning) ish rejalari kamida bittasiniki mavjud bo'lmasa.</i>	0

8-ko'rsatkich. O'qituvchilardan olingan so'rovnoma va uning natijalari (10 ball).

$$I_8 = \frac{X_2}{X_1} \times 100\%$$

bu yerda,

I_8 – o'qituvchilardan olingan so'rovnoma;

X_1 – jami o'qituvchilar soni;

X_2 – ijobiy baholagan o'qituvchilar soni.

O'qituvchi va xodimlardan olingan so'rovnoma va uning natijalari.	10
<i>O'qituvchi va xodimlar tomonidan ijobiy baholanganda (0,6-1 oralig'ida).</i>	10
<i>O'qituvchi va xodimlar tomonidan qoniqarli baholanganda (0,1-0,5 oralig'ida).</i>	5
<i>O'qituvchi va xodimlar tomonidan qoniqarsiz baholanganda (0,1 past).</i>	0

TA'LIM SIFATI

Ushbu soha **3 ta mezon** va **12 ta ko'rsatkich** asosida o'rganiladi va **300 ball** bilan baholanadi.

3-mezon. O'qituvchilar faoliyatining asosiy yo'nalishlari (185 ball).

9-ko'rsatkich. Ehtiyojga muvofiq o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi (25 ball).

$$I_9 = \frac{X_2}{X_2 + X_1} \times 100\%$$

bu yerda,

I_9 – ehtiyojga muvofiq o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi;

X_1 – vakantlar soni;

X_2 – jami o'qituvchilar soni.

Ehtiyojga muvofiq o'qituvchilar bilan ta'minlanganligi.	25
<i>95-100 % ni tashkil etadi.</i>	25
<i>90-94 % ni tashkil etadi.</i>	20
<i>85-89 % ni tashkil etadi.</i>	15
<i>80-84 % ni tashkil etadi.</i>	10
<i>75-79 % ni tashkil etadi.</i>	5
<i>74 % va undan kamini tashkil etadi.</i>	0

10-ko'rsatkich. Oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligi (30 ball).

$$I_{10} = \frac{X_1}{X_2} \times 100\%$$

bu yerda,

I_{10} – oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligini ko'rsatuvchi indeks;

X_1 – oliy ma'lumotga ega o'qituvchilar soni;

X_2 – jami o'qituvchilar soni.

Oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanganligi.	30
<i>99-100 % ni tashkil etadi.</i>	30
<i>96-98 % ni tashkil etadi.</i>	20
<i>93-95 % ni tashkil etadi.</i>	10
<i>92 % va undan kamini tashkil etadi.</i>	0

11-ko'rsatkich. O'qituvchilar malakasini oshirganligi (20 ball).

O'qituvchilar malakasini oshirganligi.	20
<i>Malaka oshirish bo'yicha rejalar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan hamda mustaqil malaka oshirish va kasbiy rivojlanish uchun sharoitlar yaratilgan.</i>	20
<i>Malaka oshirish bo'yicha rejalar ishlab chiqilmagan bo'lsada, mustaqil malaka oshirish va kasbiy rivojlanish uchun sharoitlar yaratilgan.</i>	15
<i>Malaka oshirish bo'yicha rejalar ishlab chiqilmagan, ammo malaka oshirishga yuborilgan.</i>	10
<i>Malaka oshirish bo'yicha rejalar ishlab chiqilmagan, faqat mustaqil malaka oshirish imkoniyati berilgan.</i>	5
<i>Malaka oshirishga e'tibor qaratilmagan.</i>	0

12-ko'rsatkich. Umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi (20 ball).

$$I_{12} = \frac{X_1 + X_2}{X_3} \times 100\%$$

bu yerda,

I_{12} – xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi indeksi;

X_1 – xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar soni;

X_2 – milliy sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar soni;

X_3 – jami o'qituvchilar soni.

Umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro va milliy sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi.	20
<i>Natija 0,8 dan yuqori bo'lsa.</i>	20
<i>Natija 0,75-0,8 oralig'ida bo'lsa.</i>	18
<i>Natija 0,7-0,75 oralig'ida bo'lsa.</i>	16
<i>Natija 0,65-0,7 oralig'ida bo'lsa.</i>	14
<i>Natija 0,6-0,65 oralig'ida bo'lsa.</i>	12
<i>Natija 0,5-0,6 oralig'ida bo'lsa.</i>	10
<i>Natija 0,4-0,5 oralig'ida bo'lsa.</i>	8
<i>Natija 0,3-0,4 oralig'ida bo'lsa.</i>	6
<i>Natija 0,2-0,3 oralig'ida bo'lsa.</i>	4
<i>Natija 0,1-0,2 oralig'ida bo'lsa.</i>	2
<i>Natija 0,1 gacha bo'lsa.</i>	0

13-ko'rsatkich. Oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi (50 ball).

$$I_{13} = \frac{X_1 + X_2}{X_3} \times 100\%$$

bu yerda,

I_{13} – oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi ko'rsatuvchi indeks;

X_1 – oliy malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar soni;

X_2 – birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar soni;

X_3 – jami o'qituvchilar soni.

Oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo'lgan o'qituvchilar ulushi.	50
<i>31 % (41 %) dan ortiqni tashkil etadi.</i>	50

26-30 % (36-40 %)ni tashkil etadi.	40
21-25 % (31-35 %)ni tashkil etadi.	30
16-20 % (26-30 %)ni tashkil etadi.	20
11-15% (21-25 %)ni tashkil etadi.	10
10 % (20 %) va undan kamini tashkil etadi.	0

14-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining turli darajadagi yutuqlari (20 ball).

Ushbu ko'rsatkich umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarning rasmiy tanlov va musobaqalarda sovrindor bo'lganligi, turli miqyosda taqdirlanganligi hamda xalqaro darajada erishgan yutuqlarini baholashga qaratilgan bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{14} = \frac{5X_1 + 10X_2 + 15X_3 + 20X_4}{X_5}$$

bu yerda,

I_{14} – o'qituvchilarining (yil davomida) turli tanlov, festival va musobaqalarda g'olib hamda sovrindor bo'lganligini, taqdirlanganligini ko'rsatuvchi indeks;

X_1 – turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarning tuman (shahar) bosqichida g'olib yoki sovrindor bo'lgan, tuman miqyosida taqdirlangan o'qituvchilar soni;

X_2 – turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarning hududiy bosqichida g'olib yoki sovrindor bo'lgan, hududiy miqyosida taqdirlangan o'qituvchilar soni;

X_3 – turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarning respublika bosqichida g'olib yoki sovrindor bo'lgan, respublika miqyosida (jumladan davlat mukofotlari bilan) taqdirlangan o'qituvchilar soni;

X_4 – turli xalqaro rasmiy tanlov, festival va musobaqalarda g'olib yoki sovrindor bo'lgan, taqdirlangan o'qituvchilar soni;

X_5 – jami o'qituvchilar soni;

20 – Xalqaro miqyosida taqdirlangan yoki turli tanlovlarda ishtirok etgan, sovrindor bo'lgan o'qituvchilar uchun ball;

15 – Respublika miqyosida taqdirlangan yoki turli tanlovlarda sovrindor bo'lgan o'qituvchilar uchun ball;

10 – Hududiy miqyosida taqdirlangan yoki turli tanlovlarda sovrindor bo'lgan o'qituvchilar uchun ball;

5 – Tuman miqyosida taqdirlangan yoki turli tanlovlarda sovrindor bo'lgan o'qituvchilar uchun ball.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining turli darajadagi yutuqlari.	20
Natija 4,0 dan yuqori bo'lsa.	20
Natija 3,5-3,9 oralig'ida bo'lsa.	18
Natija 3,0-3,4 oralig'ida bo'lsa.	16
Natija 2,5-2,9 oralig'ida bo'lsa.	14
Natija 2,2-2,4 oralig'ida bo'lsa.	12
Natija 1,9-2,1 oralig'ida bo'lsa.	10
Natija 1,6-1,8 oralig'ida bo'lsa.	8
Natija 1,2-1,5 oralig'ida bo'lsa.	6
Natija 0,9-1,1 oralig'ida bo'lsa.	4
Natija 0,6-0,8 oralig'ida bo'lsa.	2
Natija 0,5 gacha bo'lsa.	0

15-ko'rsatkich. O'qituvchilarning dars tahlili (20 ball).

$$I_{15} = \frac{X_2 \cdot X_1}{X_3} \times 100\%$$

bu yerda,

I_{15} – dars tahlilini ko'rsatuvchi indeks;

X_1 – darslari tahlil qilingan o'qituvchilar soni;

X_2 – tahlil qilingan barcha o'qituvchilarning jami to'plagan ballari;

X_3 – baholash mezoni soni.

O'qituvchilarning dars tahlili.	20
Natija 18 dan yuqori bo'lsa.	20

Natija 15-18 oralig'ida bo'lsa.	15
Natija 10-15 oralig'ida bo'lsa.	10
Natija 5-10 oralig'ida bo'lsa.	5
Natija 5 gacha bo'lsa.	0

4-mezon. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining akademik natijalarini baholash (90 ball).

16-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining respublika fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan yutuqlari (**15 ball**).

Tuman, hududiy va respublika bosqichida sovrinli o'rnlarni olgan o'quvchilar sonini turli koeffitseyentlar berish hamda o'quvchilar sonidan kelib chiqib, olimpiadalarda qatnashishi mumkin bo'lgan o'quvchilar soniga nisbatini olish bilan hisoblanadi, bayonnomalar asosida tahlil etiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{16} = \frac{(6X_1 + 4X_2 + 2X_3) + (10X_4 + 8X_5 + 6X_6) + (15X_7 + 13X_8 + 10X_9)}{X_{10}}$$

bu yerda,

I₁₆ – o'quvchilarning (yil davomida) respublika fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan yutuqlarini ko'rsatuvchi indeks;

X₁ – respublika fan olimpiadasining tuman bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (10 ball);

X₂ – respublika fan olimpiadasining tuman bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (5 ball);

X₃ – respublika fan olimpiadasining tuman bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (2 ball);

X₄ – respublika fan olimpiadasining hududiy bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (15 ball);

X₅ – respublika fan olimpiadasining hududiy bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (10 ball);

X₆ – respublika fan olimpiadasining hududiy bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (5 ball);

X₇ – respublika fan olimpiadasining respublika bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (20 ball);

X₈ – respublika fan olimpiadasining respublika bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (15 ball);

X₉ – respublika fan olimpiadasining respublika bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchilar soni (10 ball);

X₁₀ – respublika fan olimpiadalarida bir umumiy o'rta ta'lim maktabidan qatnashishi mumkin bo'lgan jami o'quvchilar soni.

Respublika fan olimpiadalarida bir umumiy o'rta ta'lim maktabidan qatnashishi mumkin bo'lgan jami o'quvchilar soni (**X₁₀**) "Davlat ta'lim standartlari o'quv dasturlari va rejalarida belgilangan fanlar hamda ularga ajratilgan o'quv soatlaridan kelib chiqqan holda asosiy olimpiadalar o'tkaziladigan fanlar ro'yxati" dan hamda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari sonidan kelib chiqib:

jami o'quvchilari soni **630 nafargacha** bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablar uchun **9** deb;

jami o'quvchilari soni **631 nafardan 945 nafargacha** bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablar uchun **18** deb;

jami o'quvchilari soni **945 nafardan ortiq** bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablar uchun **27** deb belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining respublika fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan yutuqlari.	15
Natija 13 dan yuqori bo'lsa.	15
Natija 8-13 oralig'ida bo'lsa.	10
Natija 5-8 oralig'ida bo'lsa.	5
Natija 3-5 oralig'ida bo'lsa.	2
Natija 3 gacha bo'lsa.	0

17-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining respublika oliy ta'lim

muassasasiga kirish imtihonidagi natijalari (**30 ball**).

Respublika oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida qatnashgan bitiruvchilarning to'plagan o'rta ballariga turli darajadagi koeffitseyentlar berish yo'li bilan bilim va malakalarni baholash agentligi ma'lumotlari asosida hisoblanadi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{16} = \frac{\sum_{i=1}^n (X_1 + \dots + X_n)}{Y}$$

bu yerda,

I₁₇ – umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining respublika oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonidagi natijalarini ko'rsatuvchi indeksi;

i – kirish imtihoni qatnashchisining tartib raqami;

n – kirish imtihonlarida qatnashgan jami o'quvchilar soni;

X₁, ..., X_n – umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari tomonidan kirish imtihonlarida to'plangan ballar;

Y – joriy yildagi jami bitiruvchi o'quvchilar soni.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining kirish imtihonlaridagi natijalari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining respublika oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonidagi natijalari.	30
<i>Natija 100 dan yuqori bo'lsa.</i>	30
<i>Natija 90-100 oralig'ida bo'lsa.</i>	20
<i>Natija 80-90 oralig'ida bo'lsa.</i>	15
<i>Natija 70-80 oralig'ida bo'lsa.</i>	10
<i>Natija 56-70 oralig'ida bo'lsa.</i>	5
<i>Natija 56 gacha bo'lsa.</i>	0

18-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining ta'limning keyingi bosqichi bilan qamrab olingan hamda bandligi ta'minlangan (**25 ball**).

TOP-1000 talikka kiruvchi OTMlarga, boshqa xorijiy OTMlarga, xorijiy OTMlarning respublikamizdagi filiallariga, xususiy OTMlarga, respublika OTMlariga (kvota doirasida va undan tashqarida kirganlar alohida olinadi), shuningdek o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan va mehnat faoliyatini boshlagan bitiruvchilar soniga turli koeffitseyentlarda ball ajratilgan holda bitiruvchilar jami soniga nisbatan hisoblanadi, psixolog hisobotlari hamda tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'rganiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{18} = 25 \times \frac{X_1}{X_9} + 20 \times \frac{X_2}{X_9} + 5 \times \frac{X_3}{X_9} + 5 \times \frac{X_4}{X_9} + 30 \times \frac{X_5}{X_9} + 10 \times \frac{X_6}{X_9} + 5 \times \frac{X_7}{X_9} + 5 \times \frac{X_8}{X_9}$$

bu yerda,

I₁₈ – Umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining ta'limning keyingi bosqichi bilan qamrab olinganligi hamda bandligi ta'minlanganligini ko'rsatuvchi indeksi;

X₁ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan respublika oliy ta'lim tashkilotlariga belgilangan kvota doirasida o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₂ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan respublikadagi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallariga o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₃ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan respublikadagi xususiy oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₄ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan respublika oliy ta'lim tashkilotlariga qo'shimcha ("super") kontrakt doirasida o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₅ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan xorijiy top-1000* oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₆ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan boshqa xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₇ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan o'rta maxsus ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgan o'quvchilar soni;

X₈ – hisobot yilidagi bitiruvchilaridan mehnat faoliyatini boshlagan o'quvchilar soni;

X₉ – hisobot yilidagi Umumiy o'rta ta'lim maktabini tugatgan jami bitiruvchilar soni.

*QS World University Rankings, Times Higher Education World University Rankings, Academic Ranking of World Universities reyting tizimlari bo'yicha.

Umumiy oʻrta taʼlim maktabi bitiruvchilarining taʼlimning keyingi bosqichi bilan qamrab olinganligi hamda bandligi taʼminlanganligi.	25
<i>Natija 18 dan yuqori boʻlsa.</i>	25
<i>Natija 16-18 oraligʻida boʻlsa.</i>	22
<i>Natija 14-16 oraligʻida boʻlsa.</i>	20
<i>Natija 12-14 oraligʻida boʻlsa.</i>	17
<i>Natija 10-12 oraligʻida boʻlsa.</i>	15
<i>Natija 9-10 oraligʻida boʻlsa.</i>	13
<i>Natija 8-9 oraligʻida boʻlsa.</i>	10
<i>Natija 6-8 oraligʻida boʻlsa.</i>	7
<i>Natija 4-6 oraligʻida boʻlsa.</i>	4
<i>Natija 2-4 oraligʻida boʻlsa.</i>	1
<i>Natija 2 gacha boʻlsa.</i>	0

19-koʻrsatkich. Oʻquvchilarning xalqaro va milliy sertifikatlariga ega ekanligi **(20 ball)**.

Oʻquvchilar tomonidan qoʻlga kiritilgan turli xalqaro (til, IT va boshqa sohalardagi) va milliy sertifikatlar mavjudligi va soni jami yuqori oʻquvchilari soniga nisbatan olib turli koeffitsiyentdagi ball ajratiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{19} = \frac{15X_1 + 20X_2}{X_3}$$

bu yerda,

I₁₉ – oʻquvchilarining (yil davomida) turli tanlov, festival va musobaqalarda gʻolib va sovrindor boʻlganligini koʻrsatuvchi indeks;

X₁ – turli rasmiy milliy sertifikatlar soni;

X₂ – turli rasmiy xalqaro sertifikatlar soni;

X₃ – jami oʻquvchilar soni.

Oʻquvchilarning xalqaro va milliy sertifikatlariga ega ekanligi.	20
<i>Natija 0,8 dan yuqori boʻlsa.</i>	20
<i>Natija 0,75-0,8 oraligʻida boʻlsa.</i>	18
<i>Natija 0,7-0,75 oraligʻida boʻlsa.</i>	16
<i>Natija 0,65-0,7 oraligʻida boʻlsa.</i>	14
<i>Natija 0,6-0,65 oraligʻida boʻlsa.</i>	12
<i>Natija 0,5-0,6 oraligʻida boʻlsa.</i>	10
<i>Natija 0,4-0,5 oraligʻida boʻlsa.</i>	8
<i>Natija 0,3-0,4 oraligʻida boʻlsa.</i>	6
<i>Natija 0,2-0,3 oraligʻida boʻlsa.</i>	4
<i>Natija 0,1-0,2 oraligʻida boʻlsa.</i>	2
<i>Natija 0,1 gacha boʻlsa.</i>	0

5-mezon. Umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilarining noakademik natijalarini baholash (25 ball).

20-koʻrsatkich. Oʻquvchilarning turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalardagi natijalari **(25 ball)**.

Oʻquvchilar tomonidan hududiy va respublika, shuningdek xalqaro miqyosidagi turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarda sovrinli oʻrinlarni qoʻlga kiritganlari soniga turli koeffitsiyent berish hamda umumiy oʻquvchilar soniga nisbatan olish orqali hisoblanadi hamda diplomlar, sertifikatlar va shu kabi tasdiqlovchi hujjatlar oʻrganiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$I_{20} = \frac{15X_1 + 20X_2 + 25X_3}{X_4}$$

bu yerda,

I₂₀ – oʻquvchilarining (yil davomida) turli tanlov, festival va musobaqalarda gʻolib va sovrindor boʻlganligini koʻrsatuvchi indeks;

X₁ – turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarning hududiy bosqichida gʻolib yoki sovrindor boʻlgan oʻquvchilar soni;

X₂ – turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarning respublika bosqichida g‘olib yoki sovrindor bo‘lgan o‘quvchilar soni;

X₃ – turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalarning xalqaro miqyosida g‘olib yoki sovrindor bo‘lgan o‘quvchilar soni;

X₄ – jami o‘quvchilar soni.

O‘quvchilarning turli rasmiy tanlov, festival va musobaqalardagi natijalari.	25
<i>Natija 0,8 dan yuqori bo‘lsa.</i>	25
<i>Natija 0,75-0,8 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	18
<i>Natija 0,7-0,75 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	16
<i>Natija 0,65-0,7 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	14
<i>Natija 0,6-0,65 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	12
<i>Natija 0,5-0,6 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	10
<i>Natija 0,4-0,5 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	8
<i>Natija 0,3-0,4 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	6
<i>Natija 0,2-0,3 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	4
<i>Natija 0,1-0,2 oralig‘ida bo‘lsa.</i>	2
<i>Natija 0,1 gacha bo‘lsa.</i>	0

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH HAMDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGI

Ushbu soha **2 ta mezon** va **8 ta ko‘rsatkich** asosida o‘rganiladi va **200 ball** bilan baholanadi.

6-mezon. O‘quv jarayonining tashkil etilishini baholash (100 ball).

21-ko‘rsatkich. Tayanch o‘quv rejaga muvofiq o‘quv jarayonining tashkil etilganligi **(50 ball)**.

Pedagog kadrlarning tarifikatsiyasiga doir hujjatlarning yuritilishi .	30
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quv rejasi, dars soatlari setkasi, dars taqsimoti to‘g‘ri shakllantirilgan.</i>	30
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quv rejasi, dars soatlari setkasi, dars taqsimotlarida xatoliklar bilan yuborilgan hamda qayta ishlangan.</i>	15
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘quv rejasi xato tuzilgan hamda qayta ishlangan.</i>	5
<i>Pedagog kadrlarning tarifikatsiyasi qilinmagan.</i>	0
Umumiy o‘rta ta‘lim maktabining dars jadvali SanQvaMga mos ravishda ishlab chiqilganligi .	20
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabining dars jadvali SanQvaMga mos ravishda ishlab chiqilgan.</i>	15
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabining dars jadvali SanQvaMga mos ravishda ishlab chiqilmagan.</i>	10
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabining dars jadvali mavjud emas.</i>	0

22-ko‘rsatkich. Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etilishi **(10 ball)**.

Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etilishi.	10
<i>Metodbirlashmalar faoliyati to‘g‘ri tashkil etilgan.</i>	10
<i>Metodbirlashmalar belgilangan tartibga ko‘ra tashkil etilmagan.</i>	5
<i>Umuman metodbirlashmalar mavjud emas.</i>	0

23-ko‘rsatkich. O‘quvchilarning o‘quv va elektron darsliklar, o‘qituvchilar metodik qo‘llanmalar hamda badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlanganligi **(10 ball)**.

O‘quvchilarning o‘quv va elektron darsliklar, o‘qituvchilar metodik qo‘llanmalar hamda badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlanganligi.	10
<i>O‘quvchilar o‘quv va elektron darsliklar, o‘qituvchilar metodik qo‘llanmalar hamda badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlangan.</i>	10
<i>O‘quvchilarning kutubxonadan foydalanishi qoniqarli, ammo badiiy darsliklar yetarli emas.</i>	5
<i>O‘quvchilar kutubxonadan foydalanmayapti yoki darsliklar inventarizatsiyadan o‘tkazilmagan.</i>	0

24-ko'rsatkich. O'quv-pedagogik hujjatlarning yuritilishi (30 ball).

Pedagogik kengash bayonnomalarining belgilangan tartibda yuritilishi.	10
<i>Pedagogik kengash bayonnomalari rejaga asosan belgilangan tartibda yuritilmoqda.</i>	10
<i>Pedagogik kengash bayonnomalari rejaga mos kelmagani holatda yuritilmoqda.</i>	5
<i>Pedagogik kengash bayonnomalari o'z vaqtida rasmiylashtirilmagan.</i>	3
<i>Pedagogik kengash bayonnomalari yuritilmayapti.</i>	0
Asosiy faoliyatga doir buyruqlar daftari, o'quvchilar harakatiga doir buyruqlar yuritilishi.	10
<i>Asosiy faoliyatga doir buyruqlar daftari, o'quvchilar harakatiga doir buyruqlar yuritilmoqda (onlayn yoki offlayn).</i>	10
<i>Asosiy faoliyatga doir buyruqlar daftari (onlayn yoki offlayn) yuritilmoqda, ammo o'quvchilar harakatiga doir buyruqlar yuritilmayapti.</i>	5
<i>Asosiy faoliyatga doir buyruqlar daftari (onlayn yoki offlayn) yuritilmayapti, ammo o'quvchilar harakatiga doir buyruqlar yuritilmoqda.</i>	3
<i>Asosiy faoliyatga doir buyruqlar daftari, o'quvchilar harakatiga doir buyruqlar yuritilmayapti (onlayn yoki offlayn).</i>	0
Qoldirilgan va o'rni to'ldirilgan darslarni hisobga olish daftarining yuritilishi.	10
<i>Qoldirilgan va o'rni to'ldirilgan darslarni hisobga olish daftari yuritilmoqda.</i>	10
<i>Qoldirilgan va o'rni to'ldirilgan darslarni hisobga olish daftari o'z vaqtida yuritilmayapti.</i>	5
<i>Qoldirilgan va o'rni to'ldirilgan darslarni hisobga olish daftari mavjud emas.</i>	0

7-mezon. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi (100 ball).**25-ko'rsatkich. O'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilganligi (45 ball).**

O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish choralari ko'rilganligi.	10
<i>O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish choralari ko'rilgan.</i>	10
<i>O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish choralari bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazilmagan.</i>	5
<i>O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik sodir etilgan.</i>	0
O'quvchilarga nisbatan har qanday diskriminatsiya va haqoratlashning (bulling) oldini olish choralari ko'rilganligi.	5
<i>O'quvchilarga nisbatan har qanday diskriminatsiya va haqoratlashning (bulling) oldini olish choralari ko'rilgan.</i>	5
<i>Maktabda o'quvchilarga nisbatan har qanday diskriminatsiya va haqoratlash (bulling) bo'lgan.</i>	0
O'quvchilar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish choralari ko'rilganligi.	10
<i>O'quvchilar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish choralari ko'rilgan.</i>	10
<i>O'quvchilar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish bo'yicha tadbirlar o'tkazilgan, ammo profilaktik suhbatlar o'tkazilmagan.</i>	5
<i>O'quvchilar o'rtasida o'z joniga qasd qilish holati uchragan.</i>	0
O'quvchi-qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlarining oldini olish choralari ko'rilganligi.	10
<i>O'quvchi-qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlarining oldini olish choralari ko'rilgan.</i>	10
<i>O'quvchi-qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlarining oldini olish choralari bo'yicha soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar o'tkazilmagan.</i>	5
<i>O'quvchi-qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlari mavjud.</i>	0
O'quvchilar tomonidan sababsiz muntazam dars qoldirish holatlarining oldini olish choralari ko'rilganligi.	10
<i>O'quvchilar tomonidan sababsiz muntazam dars qoldirish holatlari oldi olingan.</i>	10
<i>O'quvchilar tomonidan sababsiz muntazam dars qoldirish holatlarining oldini olish choralari ko'rilgan.</i>	0

26-ko'rsatkich. Tashkiliy ishlar samaradorligi (20 ball).

Umumiy o'rta ta'lim maktabida fan, AKT, sport, madaniyat va o'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha to'garaklar jadvali tasdiqlangan hamda ushbu jadval asosida tashkil etilganligi.	10
<i>To'garaklar jadvali tasdiqlangan hamda ushbu jadval asosida tashkil etilgan.</i>	10
<i>Tasdiqlangan jadvalga muvofiq 75% — 90% oraliq'ida to'garaklar ish jarayonida bo'lsa.</i>	8
<i>Tasdiqlangan jadvalga muvofiq 50% — 74% oraliq'ida to'garaklar ish jarayonida bo'lsa.</i>	6

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq 25% — 49% gacha oralig'ida to'garaklar ish jarayonida bo'lsa.	4
Tasdiqlangan jadvalga muvofiq 10% — 24% gacha oralig'ida to'garaklar ish jarayonida bo'lsa.	2
Tasdiqlangan jadvalga muvofiq 9% dan past bo'lsa yoki tashkil etilmagan bo'lsa.	0
Umumiy o'rta ta'lim maktabida "O'zbekiston -2030" strategiyasining asosiy g'oya va maqsadlari yoritilgan targ'ibot doskasining mavjudligi.	10
"O'zbekiston -2030" strategiyasining asosiy g'oya va maqsadlari yoritilgan targ'ibot doskasi mavjud.	10
"O'zbekiston -2030" strategiyasining asosiy g'oya va maqsadlari yoritilgan targ'ibot doskasi mavjud emas.	0

27-ko'rsatkich. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlar olib borilganligi (25 ball).

O'quvchilarga kasblar to'g'risida ma'lumotlar berilganligi.	10
Kasblar to'g'risida ma'lumot beruvchi burchak (stend)lar tashkil etilgan, kasbga yo'naltiruvchi to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda, tarbiyaviy soatlar va texnologiya fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish bo'yicha ma'lumotlar berilmoqda.	10
Kasblar to'g'risida ma'lumot beruvchi burchak (stend)lar tashkil etilmagan, kasbga yo'naltiruvchi to'garaklar faoliyat ko'rsatmayapti.	5
Tarbiyaviy soatlar va texnologiya fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish bo'yicha ma'lumotlar berilmayapti.	0
O'quvchilarning kasbga qiziqishini aniqlash bo'yicha so'rovlar o'tkazilganligi.	5
So'rovlar o'tkazilgan va tahlil qilingan, tahlil natijalari o'quvchilar va ularning ot-onalari bilan muhokama qilinib, ularga tegishli tavsiyalar berilgan.	5
So'rovlar o'tkazilgan va tahlil qilingan, lekin tahlil natijalari o'quvchilar va ularning ot-onalariga yetkazilmagan.	2
O'quvchilarning kasbga qiziqishini aniqlash bo'yicha so'rovlar o'tkazilmagan.	0
Umumiy o'rta ta'lim maktabida kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari yo'lga qo'yilganligi.	10
O'quvchilar va taniqli kasb egalari o'rtasida uchrashuvlar tashkil etilgan hamda hududdagi yirik korxonalar va tashkilotlarga sayohatlari uyushtirilgan, kasbga yo'naltirish bo'yicha insholar olingan.	10
O'quvchilar va taniqli kasb egalari o'rtasida uchrashuvlar tashkil etilgan, ammo hududdagi yirik korxonalar va tashkilotlarga sayohatlari uyushtirilmagan, kasbga yo'naltirish bo'yicha insholar olinmagan.	5
Umuman kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmagan.	0

28-ko'rsatkich. O'quvchilardan olingan so'rovnoma va uning natijalari (10 ball).

O'quvchilardan olingan so'rovnoma va uning natijalari.	10
O'quvchilar tomonidan ijobiy baholanganda (0,6-1 oralig'ida).	10
O'quvchilar tomonidan qoniqarli baholanganda (0,1-0,5 oralig'ida).	5
O'quvchilar tomonidan qoniqarsiz baholanganda (0,1 gacha).	0

MUASSASADA QULAY SHART-SHAROITLARNING YARATILGANLIGI VA INFRATUZILMASI

Ushbu soha 2 ta mezon va 9 ta ko'rsatkich asosida o'rganiladi va 200 ball bilan baholanadi.

8-mezon. Umumiy o'rta ta'lim maktabida laboratoriya tajribalari va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish imkoniyatining mavjudligi (100 ball).

29-ko'rsatkich. Fizika laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi (20 ball).

Fizika laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi.	20
Mashg'ulotlarning 81-100 foizini o'tkazish imkoniga ega.	20
Mashg'ulotlarning 61-80 foizini o'tkazish imkoniga ega.	15
Mashg'ulotlarning 41-60 foizini o'tkazish imkoniga ega.	10
Mashg'ulotlarning 21-40 foizini o'tkazish imkoniga ega.	5
Mashg'ulotlarning 20 foizgacha o'tkazish imkoniga ega.	0

30-ko'rsatkich. Kimyo laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi (20 ball).

Kimyo laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi.	20
<i>Mashg'ulotlarning 81-100 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	20
<i>Mashg'ulotlarning 61-80 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	15
<i>Mashg'ulotlarning 41-60 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	10
<i>Mashg'ulotlarning 21-40 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	5
<i>Mashg'ulotlarning 20 foizgacha o'tkazish imkoniga ega.</i>	0

31-ko'rsatkich. Biologiya laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi (20 ball).

Biologiya laboratoriya amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi.	20
<i>Mashg'ulotlarning 81-100 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	20
<i>Mashg'ulotlarning 61-80 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	15
<i>Mashg'ulotlarning 41-60 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	10
<i>Mashg'ulotlarning 21-40 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	5
<i>Mashg'ulotlarning 20 foizgacha o'tkazish imkoniga ega.</i>	0

32-ko'rsatkich. Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi (20 ball).

Texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi.	20
<i>Mashg'ulotlarning 81-100 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	20
<i>Mashg'ulotlarning 61-80 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	15
<i>Mashg'ulotlarning 41-60 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	10
<i>Mashg'ulotlarning 21-40 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	5
<i>Mashg'ulotlarning 20 foizgacha o'tkazish imkoniga ega.</i>	0

33-ko'rsatkich. Tasviriy san'at fanidan amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi (10 ball).

Tasviriy san'at fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi.	10
<i>Mashg'ulotlarning 81-100 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	10
<i>Mashg'ulotlarning 61-80 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	8
<i>Mashg'ulotlarning 41-60 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	6
<i>Mashg'ulotlarning 21-40 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	4
<i>Mashg'ulotlarning 20 foizgacha o'tkazish imkoniga ega.</i>	2

34-ko'rsatkich. Musiqa fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi (10 ball).

Musiqa fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi.	10
<i>Mashg'ulotlarning 81-100 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	10
<i>Mashg'ulotlarning 61-80 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	8
<i>Mashg'ulotlarning 41-60 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	6
<i>Mashg'ulotlarning 21-40 foizini o'tkazish imkoniga ega.</i>	4
<i>Mashg'ulotlarning 20 foizgacha o'tkazish imkoniga ega.</i>	2

9-mezon. Umumiy o'rta ta'lim maktabida axborot texnologiyalari infratuzilmasi (100 ball).

35-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabini kompyuterlar bilan ta'minlanganlik darajasi (50 ball).

Mezon maktabdagi informatika xonasida mavjud bo'lgan yaroqli kompyuterlarning* o'quv va to'garak dars o'tqizish uchun yetarli miqdorda mavjudligini ko'rsatadi. Bunda ko'rsatkich $\frac{X_1}{X_2}$ formulasi orqali aniqlanadi, bu yerda X_1 -maktab o'quv rejasiga muvofiq, 5-11-sinflardagi haftalik informatika dars soatlari, X_2 esa informatika xonasidagi kompyuterlar soni 15 tagacha bo'lganida 30 ga, 15 dan 30 tagacha bo'lganida, 15 ga 30 dan 45 tagacha bo'lganida 7,5 ga, 45 dan 60 tagacha bo'lganida 3,75 ga teng qiymat.

*bu yerda informatika xonasidagi kompyuterlar soni "Informatika va axborot-texnologiyalari" xonasi uchun jihozlar" talablariga mos tushishi zarur.

Informatika xonalarini kompyuterlar bilan ta'minlanganligi.	30
<i>Natija 0,5 dan 1 oraliq'ida.</i>	30
<i>Natija 1 dan 1,5 oraliq'ida.</i>	20
<i>Natija 1,5 dan 2 oraliq'ida.</i>	10
<i>Natija 2 dan ko'p bo'lsa.</i>	5
<i>Informatika xonasi mavjud emas.</i>	0
Boshqa sinf xonalarni kompyuterlar bilan ta'minlanganligi .	10
<i>Barcha sinf xonalar kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	10
<i>Sinf xonalarning 50 % dan ko'pi kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	8
<i>Sinf xonalarning 50 % gacha kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	5
<i>Sinf xonalarning 30 % gacha kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	3
<i>Boshqa sinflarda kompyuterlar mavjud emas.</i>	0
Ma'muriyat xonalarni kompyuterlar bilan ta'minlanganligi.	10
<i>Barcha ma'muriyat xonalari kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	10
<i>Ma'muriyat xonalarining 30 % dan ko'pi kompyuterlar bilan ta'minlangan.</i>	8
<i>Ma'muriyat xonalarining 30 % gacha kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	5
<i>Ma'muriyat xonalarining 15 % gacha kompyuter to'plamlari bilan ta'minlangan.</i>	3
<i>Ma'muriyat xonalarida kompyuterlar mavjud emas.</i>	0

36-ko'rsatkich. Kompyuterlarning tarmoqqa ulanganligi va yangilanishi (30 ball).

Kompyuterlarning lokal tarmoqqa ulanganlik darajasi

$$\frac{10X_1}{X_2}$$

Bu yerda,

X_1 – lokal tarmoqqa ulangan kompyuterlarning umumiy soni,

X_2 – jami foydalanishda bo'lgan kompyuterlar soni.

Kompyuterlarning internet tarmog'iga ulanganlik darajasi

$$\frac{10X_1}{X_2}$$

Bu yerda,

X_1 – internet tarmog'iga ulangan kompyuterlarning umumiy soni,

X_2 – jami foydalanishda bo'lgan kompyuterlar soni.

Kompyuterlarning yangilanish darajasi

$$\frac{10X_1}{X_2}$$

Bu yerda,

X_1 – oxirgi 5 yilda qabul qilingan yangi kompyuterlar soni,

X_2 – jami foydalanishda bo'lgan kompyuterlar soni.

Kompyuterlarning lokal tarmoqqa ulanganlik darajasi.	10
<i>Kompyuterlar lokal tarmoqqa ulangan.</i>	10
<i>Kompyuterlar lokal tarmoqqa qisman ulangan.</i>	5
<i>Kompyuterlar lokal tarmoqqa ulanmagan.</i>	0
Kompyuterlarning internet tarmog'iga ulanganlik darajasi.	10
<i>Kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan.</i>	10
<i>Kompyuterlar internet tarmog'iga qisman ulangan.</i>	5
<i>Kompyuterlar internet tarmog'iga ulanmagan.</i>	0
Kompyuterlarning yangilanish darajasi (oxirgi 3 yilda qabul qilingan yangi kompyuterlar).	10
<i>Kompyuterlar yangilanish darajasi (oxirgi 3 yilda qabul qilingan yangi kompyuterlar).</i>	10
<i>Kompyuterlar yangilanish darajasi (oxirgi marta 3 yildan 5 yil oraliq'ida olingan).</i>	5
<i>Kompyuterlar yangilanish darajasi (oxirgi marta 7 yil oldin olingan).</i>	0

37-ko'rsatkich. Axborot tizimlaridan foydalanish darajasi (20 ball).

ERP tizimi ma'lumotlarning yil davomida o'z vaqtida va to'g'ri shakllantirilishi.	5
<i>Ma'lumotlar bazasi, o'quvchilar, o'qituvchilar (xodimlar), o'quv jarayonlarini, ish haqlarini boshqarish to'g'ri yo'lga qo'yilgan.</i>	5
<i>O'quvchilar, o'qituvchilar (xodimlar) to'g'risida ma'lumotlar to'liq kiritilmagan, o'quv jarayonlarini, ish haqlarini boshqarish to'g'ri yo'lga qo'yilgan.</i>	3

<i>O'quvchilar, o'qituvchilar (xodimlar) to'g'risida ma'lumotlar to'liq kiritilgan, o'quv jarayonlarini, ish haqlarini boshqarish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan.</i>	0
Elektron davomat tizimida maktabning o'quv yili davomida faollik darajasi.	10
<i>86-100% faol va yil davomida doimiy ravishda "yashil hudud"ga kirgan bo'lsa.</i>	10
<i>71-85% faol bo'lsa.</i>	8
<i>56-70% faol yoki 3 oy davomida ketma-ket "sariq hudud"ga kirgan bo'lsa.</i>	6
<i>55% faol va undan past yoki 3 oy davomida ketma-ket "qizil hudud"ga kirgan bo'lsa.</i>	4
<i>Elektron davomat tizimidan foydalanilmaydi.</i>	0
Litsenzion OT va dasturlardan foydalanish darajasi.	5
<i>Litsenzion operatsion tizimdan foydalanilsa.</i>	5
<i>Litsenzion MSOffice dasturlaridan foydalanilsa.</i>	3
<i>Foydalanishda bo'lgan boshqa dasturlar litsenziyaga ega bo'lsa.</i>	2
<i>Operatsion tizim va dasturlar litsenziyaga ega bo'lmasa.</i>	0

JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK VA TARG'IBOT ISHLARI

Ushbu soha **2 ta mezon** va **4 ta ko'rsatkich** asosida o'rganiladi va **80 ball** bilan baholanadi.

10-mezon. Ota-onalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi (50 ball).

38-ko'rsatkich. Ota-onalardan olingan so'rovnoma va uning natijalari **(10 ball).**

Ota-onalardan olingan so'rovnoma va uning natijalari.	10
<i>Ota-onalar tomonidan ijobiy baholanganda (0,6-1 oralig'ida).</i>	10
<i>Ota-onalar tomonidan qoniqarli baholanganda (0,1-0,5 oralig'ida).</i>	5
<i>Ota-onalar tomonidan qoniqarsiz baholanganda (0,1 past).</i>	0

39-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan ta'lim imkoniyatlarini boyitish uchun mahalliy va tashqi tashkilotlar hamda boshqa maktablar bilan hamkorlik tarmoqlarini rivojlantirilganini baholash **(30 ball)**

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarning qo'shimcha bilim olishlari hamda amaliyot o'tashlari uchun turli mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi.	10
<i>O'quvchilarning qo'shimcha bilim olishlari hamda amaliyot o'tashlari uchun turli mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'ygan.</i>	10
<i>O'quvchilarning amaliyot o'tashlari uchun turli mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'ygan, ammo qo'shimcha bilim olishlariga sharoit mavjud emas.</i>	7
<i>O'quvchilarning qo'shimcha bilim olishlari uchun turli mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'ygan, ammo amaliyot o'tashlari hamkorlik mavjud emas.</i>	5
<i>O'quvchilarning qo'shimcha bilim olishlari hamda amaliyot o'tashlari uchun turli mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.</i>	0
Boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganligi	10
<i>Boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.</i>	10
<i>Faqat oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.</i>	7
<i>Faqat boshqa umumiy o'rta ta'lim maktabi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.</i>	5
<i>Hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.</i>	0
O'quvchilarni kasbiy tayyorlash uchun mahalliy korxonalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi.	10
<i>O'quvchilarni kasbiy tayyorlash uchun mahalliy korxonalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.</i>	10
<i>O'quvchilarni kasbiy tayyorlash uchun mahalliy korxonalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.</i>	

40-ko'rsatkich. Obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilganligi, hududning sinflarga taqsimlanganligi, ularning tartib bilan belgilanganligi (tablichkalar) **(10 ball).**

Obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilganligi, hududning sinflarga taqsimlanganligi, ularning tartib bilan belgilanganligi (tablichkalar).	10
---	-----------

<i>Obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilgan, hududning sinflarga taqsimlangan, ular tartib bilan belgilangan.</i>	10
<i>Obodonlashtirish ishlarining reja asosida tashkil etilgan, hududning sinflarga taqsimlanmagan.</i>	5
<i>Obodonlashtirish ishlari tashkil etilmagan.</i>	0

11-mezon. Targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yilganligi (30 ball).

41-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabining ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalarga ega ekanligi va yangiliklarni muntazam yoritib borilishi (30 ball).

Umumiy o'rta ta'lim maktabining ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy kanallarga ega ekanligi va yangiliklarni muntazam yoritib borilishi.	30
<i>Rasmiy kanalga ega va doimiy yangilab borilgan (kuniga kamida 1 ta axborot berishi).</i>	30
<i>Rasmiy kanal mavjud, qisman yangilab borilgan, ya'ni, haftada kamida 1 ta axborot berilgan.</i>	20
<i>Rasmiy kanalda axborotlar berib borish davriyligi bir haftadan ortiq (20 kun ichida) bo'lgan muddatda kamida 1 ta axborot berilgan.</i>	10
<i>Rasmiy kanalga ega bo'lib, umuman yangilab borish qoidalariga amal qilinmagan.</i>	0

XAVFSIZLIK

Ushbu soha **2 ta mezon** va **7 ta ko'rsatkich** asosida o'rganiladi va **100 ball** bilan baholanadi.

12-mezon. Umumiy o'rta ta'lim maktabi hududining kuzatuv kameralari bilan qamrab olinganligi (50 ball).

42-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi binosining tashqi tomondan kuzatuv kameralari bilan qamrov darajasi (25 ball).

Umumiy o'rta ta'lim maktabi binosining tashqi tomondan kuzatuv kameralari bilan qamrov darajasi.	25
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi binosining tashqi hududi kuzatuv kameralari bilan to'liq qamrab olingan.</i>	25
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi binosining tashqi hududi kuzatuv kameralari bilan qisman qamrab olingan.</i>	20
<i>Faqat kirish-chiqish qismi kuzatuv kameralari bilan qisman qamrab olingan.</i>	10
<i>Binoning tashqi qismlarida kuzatuv kameralari mavjud emas.</i>	0

43-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi ichki hududi (bino ichi) va sinf xonalarining kuzatuv kameralari bilan qamrov darajasi (25 ball).

Umumiy o'rta ta'lim maktabi ichki hududi (bino ichi) va sinf xonalarining kuzatuv kameralari bilan qamrov darajasi.	25
<i>Barcha sinf xonalari va yo'laklar kuzatuv kameralari bilan qamrab olingan.</i>	25
<i>Yo'laklar to'liq, ayrim sinf xonalari kuzatuv kameralari bilan qamrab olingan.</i>	15
<i>Sinf xonalari to'liq, yo'laklar kuzatuv kameralari bilan qisman qamrab olingan.</i>	10
<i>Sinf xonalarda kameralar mavjud emas, yo'laklarda mavjud.</i>	5
<i>Yo'laklarda kuzatuv kameralari mavjud emas.</i>	0

13-mezon. Umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quvchilar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratilganligi (50 ball).

44-ko'rsatkich. Umumiy o'rta ta'lim maktabi hududining o'ralganligi (10 ball).

Umumiy o'rta ta'lim maktabi hududining o'ralganligi.	10
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofi to'liq o'ralgan va zamonaviy ko'rinishda.</i>	10
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofi to'liq o'ralgan, ammo zamonaviy ko'rinishda emas.</i>	5
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofi qisman o'ralgan.</i>	3
<i>Umumiy o'rta ta'lim maktabi atrofi o'ralmagan yoki to'siq vazifasini o'tay olmaydigan ahvolda.</i>	0

45-ko'rsatkich. Yong'in xavfsizligi ta'minlanganligi (10 ball).

Yong'in xavfsizligi ta'minlanganligi:	10
1. hovuz (gidrant) mavjud;	
2. doimiy suv to'ldirish hamda saqlash imkoni mavjud;	
3. maxsus to'siq orqali xavfsiz holatda;	

4. yong‘inga qarshi kurash uskunalari (komplekt) mavjud va muddati o‘tmagan;	
5. yong‘in signalizatsiyasi mavjud va ishchi holatda.	
<i>Yong‘in xavfsizlik bo‘yicha 5 ta holatlar talab darajasida.</i>	10
<i>5 ta holatlardan birortasi talab darajasida bo‘lmasa.</i>	5
<i>Yong‘in xavfsizligi ta‘minlanmagan.</i>	0

46-ko‘rsatkich. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi, hududi va xonalarini saqlash, sanitariya-gigiyena me‘yorlari, mehnatni muhofaza qilish hamda xavfsizlik talablariga javob berishi (**10 ball**).

Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi binosi, hududi va xonalarini saqlash, sanitariya-gigiyena me‘yorlari, mehnatni muhofaza qilish hamda xavfsizlik talablariga javob berishi.	10
<i>Barcha obyektlar qo‘yilgan talablarga javob beradi.</i>	10
<i>Kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ta‘mirlash va qurilish ishlari rejalashtirilgan.</i>	5
<i>Kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ta‘mirlash va qurilish ishlari rejalashtirilmagan.</i>	0

47-ko‘rsatkich. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabida favqulodda vaziyatda harakatlanish rejasining mavjudligi hamda o‘quvchilarning xabardorligi (**10 ball**).

Umumiy o‘rta ta‘lim maktabida favqulodda vaziyatda harakatlanish rejasining mavjudligi hamda o‘quvchilarning xabardorligi.	10
<i>Favqulodda vaziyatda harakatlanish rejasini mavjud va maktab blokirovka qilishni qo‘llanilgan.</i>	10
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabida evakuatsiya amaliyotining o‘tkazilgan, ammo reja mavjud emas.</i>	6
<i>Bloklash (lockdown) rejasini mavjud, ammo amaliyot o‘tkazilmagan.</i>	4
<i>Reja mavjud emas, evakuatsiya ishlari to‘g‘ri tashkillashtirilmagan.</i>	0

48-ko‘rsatkich. O‘quvchilar xavfsizligi (**10 ball**).

O‘quvchilar xavfsizligi.	10
<i>Mas‘ul shaxslar maktabda bolalarni himoya qilish bo‘yicha maxsus o‘quvlarda qatnashgan va bolalarni himoya qilish bo‘yicha reja mavjud.</i>	10
<i>Umumiy o‘rta ta‘lim maktabida bolalarni himoya qilish bo‘yicha reja mavjud emas.</i>	0

ICHKI BAHOLASH JARAYONIDA NAZORAT ISHLARINI O‘TKAZISH TARTIBI

1) Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar rivojlanish xaritasiga ko‘ra “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish”, “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”, “Bilish jarayonining rivojlanishi”, “Ijodiy rivojlanish” sohalari bo‘yicha kuzatish amalga oshiriladi. Bunda tarbiyachilar bolalarning rivojlanishiga e‘tibor beradilar. Har o‘quv yili tizimli ravishda o‘z kuzatuvlarini tarbiyalanuvchining rivojlanish xaritasiga yozib qo‘yadilar. Ular tarbiyalanuvchining qaysi rivojlanish sohasida qiyinchiliklarga duch kelayotganiga e‘tibor qaratadilar. Shu asosida tarbiyalanuvchini ushbu soha bo‘yicha rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydilar. Tarbiyachi pedagoglar va ota-onalarga tarbiyalanuvchining rivojlanishi hamda qiyinchiliklari haqida xabar beradilar.

Tarbiyalanuvchining rivojlanish xaritasida qayd etilgan rivojlanishidagi yutuqlar kuzatuv kunida o‘tkazilgan natijalarga mos kelishi tahlil qilinadi. Bu tarbiyachi pedagoglar tomonidan olib borilgan kuzatuvlarning to‘g‘riligi va ishonchliligini isbotlaydi. Tarbiyalanuvchining rivojlanish xaritasida, jadvalga muvofiq, uning erishilgan natijalari qayd etilgan bo‘lishi kerak. Kuzatuv kunidagi natijalar tarbiyalanuvchining rivojlanish xaritasida qayd etilgan natijalarga mos kelishi va ushbu natijalardan past bo‘lmasligi zarur.

Indikatorlarga muvofiq rivojlanish xaritasidagi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o‘rtasidagi farq quyidagiga asosan baholanadi:

25% va undan kam bo‘lsa — 5 ball beriladi.

25%-45% bo‘lsa — 3 ball beriladi.

45% dan ko‘p bo‘lsa — 0 ball beriladi.

Berilgan kuzatuv natijalari tarbiyalanuvchilarning rivojlanishi holatlari 1-jadvalga asosan to‘ldiriladi hamda imzolanadi.

2) Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi faoliyatini ichki baholash jarayonida 4-11-sinf o‘quvchilarining barchasidan nazorat ishlari olinadi.

Shundan,

4-sinf o'quvchilaridan ona tili fanidan diktant va matematika fanidan yozma ish 3 ta misol va 1 ta masaladan iborat bo'ladi. Misol va masalalarning murakkablik darajasi davlat ta'lim standartlariga mos va sinf kesimida o'tilgan mavzular doirasida bo'lishi talab etiladi.

5-11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan nazorat ishlari baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli) topshiriqlari asosida test shaklida olinadi. Savollarning murakkablik darajasi DTS talablariga mos va sinflar kesimida o'tilgan mavzular doirasida bo'ladi. Baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli) joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida 5-11-sinf o'quvchilarining o'zlashtirish natijalari hisobga olinadi hamda ulardan nazorat ishlari olinmaydi.

Ichki baholash jarayonida belgilangan fanlardan o'tkaziladigan nazorat ishlari (*test, yozma ish, diktant*) ko'p variantlilik ko'rinishida Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan tayyorlanadi va ekspertizadan o'tkaziladi. 5-11-sinf o'quvchilaridan olinadigan nazorat ishlari variantlari baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli)ga asosan test shaklida tuzilishi talab etiladi.

Ekspertizadan o'tgan nazorat ishlari konvertlarga joylanib, muhrlanadi va ichki baholash komissiyasi raisiga topshiriladi. Komissiya tomonidan qabul qilingan nazorat ishlari ichki baholash uchun joriy etiladi.

O'quvchilardan olingan nazorat ishlari tekshirilib, baholanadi hamda fanlar kesimida berilgan 2-jadvalga asosan to'ldirilib, mas'ul o'qituvchilar tomonidan imzolanadi.

**ICHKI BAHOLASH JARAYONIDA BITIRUVCHI SINIF O‘QUVCHILARIDAN
OLINADIGAN NAZORAT ISHLARINI BAHOLASH MEZONLARI**

№	Fan	Nazorat turi	Baho	Baholash mezonlari
1	Ona tili	Diktant (65-70 ta so‘z)	5 (a‘lo)	Mutlaqo xatosiz yozilgan. Qo‘pol bo‘lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo‘lsa ham qo‘yilishi mumkin. Imlo va tinish belgilaridagi xatolar bilan bir qatorda chiroyli yozuv sifatiga ham e‘tibor beriladi. Xatosiz yozilgan bo‘lsada, tuzatishlar miqdori uch va undan ortiq bo‘lsa “5” baho qo‘yilmaydi.
			4 (yaxshi)	Ikkitadan uchtagacha imlo xatosi bo‘lsa. Diktantda uchta imlo xato bilan birga bitta ishorat xato yoki ikkita imlo va ikkita ishorat xato bo‘lsa ham qo‘yilishi mumkin. Umumiy xatolar soni to‘rttadan oshmasligi kerak.
			3 (qoniqarli)	To‘rttadan oltitagacha imlo xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Diktantda oltita imlo xato bilan birga bitta ishorat xato yoki beshta imlo va ikkita ishorat xato bo‘lsa ham qo‘yilishi mumkin. Umumiy xatolar soni yettitadan oshmasligi kerak.
			2 (qoniqarsiz)	Yettita va undan ko‘p imlo xatosi bo‘lgan diktantga qo‘yiladi. Diktantda imlo va ishorat xatolarining umumiy soni to‘qqiztadan oshsa ham qo‘yilishi mumkin. Diktantni tekshirishda umumiy xatolar soni o‘ntadan oshib ketsa, uni oxirigacha tekshirmasdan to‘xtatish mumkin.
			Izoh: Xatosiz yozilgan diktantdagi tuzatishlar soni beshtadan ortiq bo‘lsa, baho bir balga pasayadi; Diktantda xatolar nisbati turli ko‘rinishda bo‘lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy mezon hisoblanadi; Attestatsiya jarayonida yozilgan diktantni tekshirishda umumiy xatolar soni o‘ntadan oshib ketsa, uni oxirigacha tekshirmasdan to‘xtatish mumkin.	
2	Matematika	Yozma ish (3 ta misol va 1 ta masala)	Har bir to‘g‘ri ishlangan misolga 1 ball, to‘g‘ri ishlangan masalaga 2 ball berilib, umumiy ballar yig‘indisi baho sifatida qo‘yiladi. Misollar va masalaning yechimi to‘g‘ri chiqmagan taqdirda o‘quvchining uni yechishga bo‘lgan harakati inobatga olinadi va shu misol yoki masalaga beriladigan ballning 50 foizi bilan baholanadi.	

5-11-sinf			
5	Ona tili va adabiyot, matematika, fizika, kimyo, biologiya, xorijiy til, O‘zbekiston tarixi fanlaridan test	5 (a‘lo)	Maksimal ballning 86% -100% i
		4 (yaxshi)	Maksimal ballning 66% -85% i
		3 (qoniqarli)	Maksimal ballning 30% -65% i
		2 (qoniqarsiz)	Maksimal ballning 0% -29% i

**MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MAKTABLARI FAOLIYATINI ICHKI BAHOLASH JARAYONIDA
SO‘ROVNOMALAR O‘TKAZISH VA NATIJALARNI TAHLIL QILISH TARTIBI**

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va maktablar faoliyatini ichki baholash jarayonida pedagoglar va xodimlar jamoasi, tarbiyalanuvchilar yoki o‘quvchilarning ota-onalari o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkaziladi.

Bunda pedagog va rahbar xodimlar faoliyati, maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi ijtimoiy - ma‘naviy muhit, xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar va ta‘lim sifatini ta‘minlash ko‘rsatkichlari o‘rganiladi.

So‘rovnoma savollari tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda vazirlik tomonidan tuziladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING FAOLIYATI BO'YICHA OTA-ONALARDAN OLINADIGAN ANONIM SO'ROVNOMA

Hurmatli ota-onalar!

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni va boshqaruv sifatini yaxshilash maqsadida mazkur so'rovnomanini to'ldirib berishingizni so'raymiz. Sizning farzandingiz borayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti yuzasidan o'z fikrlaringizni quyidagi shakl bo'yicha bildirishingiz mumkin. Siz tomondan berilgan baho juda muhim.

Ko'rsatma: Iltimos, quyidagi savollarning to'g'risidagi javob variantlaridan faqat bittasini tanlang va o'sha katakka "+" belgisini qo'ying.

Kalitlar: A — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

Tr	Savollar	A	B	C
1	Farzandingiz ishtiyoq bilan maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradimi, u yerda vaqtini qiziqish bilan o'tkazadimi?			
2	Farzandingiz tashkilotda o'zini xavfsiz his qiladimi?			
3	Tarbiyachi tomonidan farzandingizning qobiliyati uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantiriladimi?			
4	Farzandingizni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnovi davomida rivojlanishida yaxshi tomonga o'zgarishlar bo'ldimi?			
5	Farzandingiz kattalar va tengdoshlari bilan tezda muloqotga kirisha oladimi?			
6	Farzandingiz yoshiga mos bilim va ko'nikmalarga ega bo'lyaptimi?			
7	Tashkilot binosi, hududi va guruh xonalarining holati Sizni qoniqtiradimi?			
8	Farzandingiz guruhdagi o'yinchoqlar va kitoblarni o'zi tanlashi va ulardan foydalanishi mumkinmi?			
9	Tashkilot ma'muriyati yoki tarbiyachi farzandingizni emlanishi va tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi haqida Sizni oldindan ogohlantiradimi?			
10	Farzandingiz uchun yaratilgan kommunal sharoitlar (isitish tizimi, suv ta'minoti, hojatxonalar holati) Sizni qoniqtiradimi?			
11	Farzandingizga berilayotgan taomlar sifatidan mamnunmisiz, Sizni qoniqtiradimi?			
12	Sizningcha, guruhda pedagogik jarayonni sifatli tashkil qilish uchun kitoblar, qo'llanmalar va o'yinchoqlar soni yetarlimi?			
13	Farzandingizning tarbiyachisiga malakali, ijodkor va tajribali mutaxassis deb baho bera olasizmi?			
14	Tarbiyachilar farzandingizni yutuqlari va qiyinchiliklari borasida Sizni xabardor qilib turadilarmi?			
15	Siz guruhda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga egamisiz?			
16	Siz Kuzatuv kengashi faoliyati bilan tanishmisiz, o'tgan yili Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotga egamisiz?			
17	Kuzatuv kengashi tomonidan olib borilayotgan ishlar Sizni qoniqtiradimi?			

Agar maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv yoki ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini yaxshilash bo'yicha fikr-mulohazalaringiz yoki takliflaringiz bo'lsa, quyida yozib qoldirishingiz mumkin.

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

- A — So'rovnomada ishtirok etgan ota-onalar soni;
- B — A va B javoblarni belgilagan ota-onalar sonining yig'indisi;
- C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;
- D — Savollar soni.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING FAOLIYATI
BO'YICHA PEDAGOG VA ISHCHI XODIMLARDAN OLINADIGAN ANONIM
SO'ROVNOMA**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining faoliyatiga baho berish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnomaga barcha pedagog va ishchi xodimlar qamrab olinadi.

So'rovnoma o'tkazish jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog va texnik xodimlarning ish faoliyatiga xalaqit bermasligi lozim.

Kalitlar: A — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

№	Savollar	A	B	C
1	Direktor tomonidan ta'lim-tarbiya sifatini oshirish bo'yicha xodimlardan takliflar so'raladi.			
2	Xodimlarni qo'shimcha rag'batlantirish berilishi shaffof, oshkora amalga oshiriladi.			
3	Bu jarayon mahalliychilik asosida, qarindoshlar yoki yaqin tanishlar bir-birini qo'llagan holda amalga oshiriladi hamda direktorning manfaati yotadi.			
4	Pedagog va texnik xodimlarga maktabgacha ta'lim tashkiloti masalalarida faol qatnashishga imkoniyat bergan, ta'lim tashkilotini boshqarishda hamda tarbiyalanuvchilar manfaatini ko'zlab ko'plab yangiliklar yaratadi.			
5	Men o'z maktabgacha ta'lim tashkilotimni yaxshi ish joyi sifatida tavsiya qilgan bo'lardim.			
6	Men ishimdan mamnunman, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zimni erkin his qilaman hamda direktordan yetarli darajada yordam olaman.			
7	Muammolarni hal qilishda adolatli va mantiqiy qaror chiqaradi.			
8	Maktabgacha ta'lim tashkilotini kerakli material va jihozlar bilan ta'minlash uchun harakat qiladi.			
9	Xodimlarga adolatli teng muomalada bo'ladi, ularni ko'pchilikni oldida tanqid qilmaydi.			
10	Topshiriqlarni bajarishda o'zi namuna ko'rsatadi, xodimlar orasida hurmati baland.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

A — So'rovnomada ishtirok etgan xodimlar soni;

B — A va B javoblarni belgilagan xodimlar sonining yig'indisi;

C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;

D — Savollar soni.

**MAKTAB HAYOTINI TASHKIL ETISHDA O'QUVCHILARNING FIKRLARI
INOBATGA OLINGANLIGI YUZASIDAN ANONIM SO'ROVNOMA**

Ichki baholash jarayonida maktab hayotini tashkil etishda o'quvchilarning fikrini o'rganish uchun olinadigan so'rovnomada 9- va 11-sinf o'quvchilari to'liq qamrab olinadi.

Kalitlar: — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

№	Savollar	A	B	C
1	Darslar o'z vaqtida dars jadvali asosida o'tiladi.			
2	Xorijiy tillar va kasbni o'rganish uchun sharoitlar yaratilgan.			
3	To'garaklar faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan, mashg'ulotlar muntazam olib boriladi.			
4	O'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktabida o'zlarini xavfsiz his qiladi.			
5	O'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim maktabi masalalarida faol qatnashishga imkoniyat beriladi.			
6	Umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'muriyati o'quvchilar manfaatini ko'zlab ko'plab yangiliklar yaratadi.			

7	Umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'muriyati va o'qituvchilar muammolari hal qilishda adolatli va mantiqiy qaror chiqaradi.			
8	Kutubxonada badiiy adabiyotlar mavjud, o'quvchilar bilimni oshirish uchun sharoit yetarli.			
9	O'quvchilarni majburiy mehnatga jalb qilinmaydi.			
10	Men bu maktabga borganimdan faxrlanaman, do'stlarimga ushbu maktabni tavsiya qilgan bo'lardim.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

A — So'rovnomada ishtirok etgan o'quvchilar soni;

B — A va B javoblarni belgilagan o'quvchilar sonining yig'indisi;

C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;

D — Savollar soni.

MAKTAB DIREKTORINING FAOLIYATI BO'YICHA O'QITUVCHI VA XODIMLARDAN OLINADIGAN ANONIM SO'ROVNOMA

Maktabi direktorining faoliyatiga baho berish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnoma o'qituvchilar va texnik xodimlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Ichki baholash jarayonida o'tkaziladigan so'rovnomaga barcha o'qituvchi va ishchi xodimlar qamrab olinadi.

So'rovnoma o'tkazish jarayoni maktabdagi dars mashg'ulotlariga xalaqit berilmasligi lozim.

O'qituvchi va ishchi xodimlardan olinadigan so'rovnoma namunasi

Kalitlar: A — qo'shilaman; B – ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

No	Savollar	A	B	C
1	Maktabda tahsil olayotgan o'quvchilar, o'qituvchilar hamda xodimlarga maktab masalalarida faol qatnashishga imkoniyat bergan, qarorlar qabul qilishda jamoaning fikrini inobatga olinadi.			
2	Rahbar tomonidan ta'lim-tarbiya sifatini oshirish bo'yicha pedagog xodimlardan takliflar so'raladi.			
3	Rag'batlantirish va ustamalar belgilash hamda berilishi shaffof, oshkora amalga oshiriladi.			
4	Bu jarayon mahalliylik asosida, qarindoshlar yoki yaqin tanishlar bir-birini qo'llagan holda amalga oshiriladi hamda maktabi direktorining manfaati yotadi.			
5	Pedagoglar qadrlanishini his qilaman hamda ularni majburiy mehnatga jalb qilmaydi.			
6	Men ishimdan mamnunman, maktabda o'zimni erkin his qilaman hamda direktordan yetarli darajada yordam olaman.			
7	Maktabda ta'lim sifatini oshirish vazifalarini bajarish uchun yetarlicha o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlaydi va resurslarni taqdim etadi.			
8	O'quv reja va unga oid topshiriqlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi.			
9	Muammolarni hal qilishda adolatli va mantiqiy qaror chiqaradi hamda xodimlarga nisbatan ham adolatli teng muomalada bo'ladi, ularni ko'pchilikni oldida tanqid qilmaydi.			
10	Topshiriqlarni bajarishda o'zi namuna ko'rsatadi, o'qituvchilar orasida hurmati baland.			
11	O'qituvchilarni yuqori tashkilotlardan kelgan topshiriq va vazifalar bilan tanishtirib boradi.			
12	Jamoa orasida ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga harakat qiladi.			
13	Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori tomonidan dars va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar yuzasidan hisobotlar va qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinmaydi.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari

umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

- A — So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchi va xodimlar soni;
- B — A va B javoblarni belgilagan o'qituvchi va xodimlar sonining yig'indisi;
- C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;
- D — Savollar soni.

MAKTABDAGI TA'LIM SIFATI BO'YICHA OTA-ONALARDAN OLINADIGAN ANONIM SO'ROVNOMA

Maktab faoliyatini ichki baholash jarayonida ta'lim sifatini ta'minlanish holati bo'yicha o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkaziladi hamda so'rovnomaga 4-, 9- va 11-sinf o'quvchilarining ota-onalari imkon qadar jalb etiladi.

O'quvchilarning ota-onalaridan olinadigan so'rovnoma namunasi

Hurmatli ota-onalar!

Sizning farzandingiz tahsil olayotgan umumiy o'rta ta'lim maktabi yuzasidan o'z fikrlaringizni quyidagi shakl bo'yicha bildirishingiz mumkin. Siz tomondan berilgan baho juda muhim.

Kalitlar: A — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

№	Savollar	A	B	C
1	Maktabda o'quvchilar uchun xavfsiz va qulay sharoitlar yaratilgan.			
2	Maktabda o'quvchilarni bo'sh vaqtlari mazmunli tashkil etiladi.			
3	Maktabda o'qituvchilar tomonidan yetarli ta'lim-tarbiya beriladi.			
4	O'qituvchilarning salohiyati kuchli hamda darslar o'z vaqtida to'liq o'tiladi.			
5	Ota-onalar bilan sinf rahbarining hamkorligi tizimli yo'lga qo'yilgan.			
6	Direktor ota-onalarga maktab masalalarida faol qatnashishga imkoniyat beradi.			
7	O'qituvchilar talabchan, o'quvchilarni adolatli baholaydi.			
8	Maktabda ota-onalar uchun "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazilib turiladi.			
9	Muntazam ravishda farzandimni o'zlashtirishini e-maktab platformasi orqali kuzatib boraman.			
10	Men uchun maktab hayoti qiziq, yangiliklarni kuzatib boraman.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

- A — So'rovnomada ishtirok etgan ota-onalar soni;
- B — A va B javoblarni belgilagan ota-onalar sonining yig'indisi;
- C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;
- D — Savollar soni.

ICHKI BAHOLASH JARAYONIDA TARBIYACHILAR HAMDA PEDAGOGLARNING MASHG'ULOTLARINI TAHLIL QILISH METODIKASI

a) Maktabgacha ta'lim tashkilotini ichki baholash jarayonida faoliyat olib borayotgan barcha tarbiyachi-pedagoglarning dars mashg'ulotlari tahlil qilinadi.

Mashg'ulot tahlili qilinishida quyidagilar inobatga olinishi tavsiya qilinadi:

Tarbiyachi tomonidan yillik mavzuviy reja asosida tarbiyalanuvchilar rivojlanish sohasini integratsiyalagan holda ta'lim faoliyatini olib borilganligi;

Tarbiyachining mashg'ulot mavzusiga oid ko'rgazma va tarqatma materiallardan foydalanganligi. Mashg'ulot vaqtining kun tartibiga mosligi;

O'tilayotgan mashg'ulotning rejaga mosligi;

Mashg'ulot davomiyligiga rioya etilganligi;

Tarbiyachi tomonidan zarur hollarda tarbiyalanuvchilar o'z faoliyatini yakunlashlari uchun qo'shimcha vaqt berilganligi;

Mashg'ulot davomida o'yin faoliyatiga asoslanganligi, tarbiyalanuvchilarning bir-birlari bilan muloqotga kirishga undaydigan o'yin va mashqlardan foydalanilganligi;

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilar ismlarini aytib murojaat qilganligi;

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga do'stona va vazminlik bilan murojaat qilganligi;

Bahs (tortishuv) yuzaga kelganida tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga muammoni aniqlash va uning yechimini topishda yordam berganligi;

Tarbiyachi faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga jismoniy jazo, ruhiy bosim yoki majburlash usullarini qo'llamadi;

Tarbiyachining mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarga mahalliy an'ana va qadriyatlarni singdiradigan jumladan foydalanganligi, milliy o'yinlar, raqs, qo'shiq va manzarali g'oyalar elementlarini kirita olganligi;

Tarbiyachi mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilarga xavfsizlik qoidalarini va guruhda o'zini tutish qoidalarini eslatib berganligi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning savol, shubha va e'tirozlariga javob bera olganligi;

Tarbiyachining mashg'ulot davomida qo'llagan pedagogik usul va uslublari har bir tarbiyalanuvchini faol bo'lishiga unday olganligi;

Tarbiyachi kundalik rejaga asosan tarbiyalanuvchilarning o'z xohish-istaklariga ko'ra rivojlantiruvchi markazlarni tanlash imkonini berganligi;

Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarga o'quv materiallarni tanlash imkonini berilganligi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni boshqa rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatini rag'batlantirgan holda uning qiziqishi sust bo'lgan tomonlarini rivojlantirishga undaydi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan mavzu asosida ularning kuzatish va amaliy jarayondagi fikrlarini so'raganligi, o'z fikr va xohishlarini ifoda qilishga unday olganligi;

Guruh uchun rejalashtirilgan faoliyat turini bajarish bolalar uchun qiyinlik qilsa, tarbiyachi faoliyat turini ular bajara oladigan boshqa topshiriqqa o'zgartirdimi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda qo'rquv, g'azab va boshqa salbiy tuyg'ular vujudga kelgan hollarda ularni yengish yo'llarini o'rgatganligi;

Tarbiyachining bolalarga nisbatan teng va samimiy munosabatda bo'lishi;

Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarda gender stereotiplariga muvofiq rollarni taqsimlaganligi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni guruhda faoliyat olib borilayotgan ta'lim tilida muloqot qilishga chaqirganligi va mashg'ulot davomida tushunarsiz bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlab berganligi;

Tarbiyachining mashg'ulot davomida kitoblardan foydalangan holda bolalarga kitob o'qib berganligi.

Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi maksimal 5 ball bilan baholanadi.

Tarbiyachi-pedagoglarining dars mashg'ulotlarini tahlil qilishda yakuniy maksimal ball 125 ballni tashkil etadi.

Ichki komissiyasi a'zolari tomonidan o'tkazilgan mashg'ulot tahlillari natijalari umumlashtirilgan holda tarbiyachi-pedagoglarining tahlil natijalari berilgan 3-jadvalga kiritiladi hamda komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolandi.

b) Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari ichki baholash jarayonida faoliyat olib borayotgan barcha fan o'qituvchilarining darslari tahlil qilinadi.

Dars tahlili qilinishida quyidagilar inobatga olinishi tavsiya qilinadi:

O'qituvchilar dars mashg'ulotini o'quv rejaga muvofiq tashkil qilganligi. Bunda o'qituvchi o'tayotgan dars mavzusi e-maktab platformasidagi mavzuga mos kelishi o'rganiladi. Ushbu ko'rsatkich maksimal 15 ball bilan baholanadi.

O'qituvchi dars jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanganligi (15 ball).

O'qituvchi dars jarayonini hayotga bog'lagan holda (kompetensiyaviy yondashuvlar asosida) tashkil etganligi (10 ball).

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishiga erishganligi. Ushbu mezonda o'qituvchi interfaol usullardan samarali foydalana olishi, dars jarayonida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishi, mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlay olish darajasi hisobga olinadi hamda maksimal 10 ball bilan baholanadi.

Zamonaviy texnologiyalar va Internet manbalari hisobga olingan holda dars mashg'uloti tashkil etilganligi (10 ball).

O'qituvchi har bir o'quvchining mashg'ulot davomida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaganligi (15 ball).

O'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchining o'z fikri, istaklari, g'oyalari va munosabatlarini ifoda etishiga imkoniyat yaratganligi (15 ball).

O'qituvchi o'z vaqtida o'quvchilar davomatini aniqlash, o'quvchilarning faolligiga qarab baholash hamda kelgusi dars mashg'uloti uchun uyga vazifalarni elektron jurnalga qayd etganligi (10 ball).

Fan o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarini tahlil qilishda yakuniy maksimal ball 100 ballni tashkil etadi.

Ichki komissiyasi a'zolari tomonidan o'tkazilgan dars tahlillari natijalari umumlashtirilgan holda fan o'qituvchilarining dars tahlil natijalari berilgan 4-jadvalga kiritiladi hamda komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

Tarbiyalanuvchilarining kuzatuv kunida ko'rsatkichlarni bajara olishining rivojlanish xaritasida qayd etilgan natijalarga mosligini baholash jadvali

Tr	Tarbiyalanuvchining F.I.SH	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzi			Ijtimoiy-hissiy rivojlanish			Nutq va muloqot, o'qish va yozish malakalari			Bilish jarayonining rivojlanishi			Ijodiy rivojlanish		
		Kuzatilgan indikatorning rivojlanish xaritasida bajarilishi (foizda)	Kuzatuv kunidagi indikatorning bajarilishi (foizda)	Farqi	Kuzatilgan indikatorning rivojlanish xaritasida bajarilishi (foizda)	Kuzatuv kunidagi indikatorning bajarilishi (foizda)	Farqi	Kuzatilgan indikatorning rivojlanish xaritasida bajarilishi (foizda)	Kuzatuv kunidagi indikatorning bajarilishi (foizda)	Farqi	Kuzatilgan indikatorning rivojlanish xaritasida bajarilishi (foizda)	Kuzatuv kunidagi indikatorning bajarilishi (foizda)	Farqi	Kuzatilgan indikatorning rivojlanish xaritasida bajarilishi (foizda)	Kuzatuv kunidagi indikatorning bajarilishi (foizda)	Farqi
1				0					0							0

Komissiya raisi

A'zolari

2-jadval

T/r	Sinflar	Nazorat ishi olingan fani	Nazorat ishi shakli	O'quvchilar soni	Nazorat ishida qatnashgan o'quvchilar soni	Nazorat ishida qatnashmagan o'quvchilar soni	"A'lo"		"Yaxshi"		"Qoniqarli"		"Qoniqarsiz"		O'quvchilarning samaradorligi		O'quvchilarning o'zlashtirishi	
							Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	O'rtacha bahosi	Foizi $16 = \frac{(8+10)*100}{5}$	O'rtacha bahosi	Foizi $18 = \frac{(8+10+12)*100}{5}$
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
1	4	ona tili	diktant															
3	4	matematika	yozma ish															
4	5	ona tili va adabiyot	test															
5	6	matematika	test															
6	7	fizika	test															
7	8	kimyo	test															
8	9	ona tili va adabiyot	test															
9	10	matematika	test															
10	11	fizika	test															
11	11	kimyo	test															
Jami				0	0	0	0											

Komissiya raisi

A'zolari

3-jadval

T\r	Kuzatuv ko'rsatkichlari	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1	Tarbiyachi tomonidan yillik mavzuviy reja asosida tarbiyalanuvchilar rivojlanish sohalarini integratsiyalagan holda ta'lim faoliyatini olib borilganligi.	Guruh faoliyati tarbiyalanuvchi rivojlanish sohalarini integratsiyalagan holda: • to'liq tashkil etilgan bo'lsa — 5 ball; • qisman tashkil etilgan bo'lsa — 3 ball; • tashkil etilmagan bo'lsa — 0 ball	5
2	Tarbiyachining mashg'ulot mavzusiga oid ko'rgazma va tarqatma materiallardan foydalanganligi.	• turli xil ko'rgazma va tarqatma materiallardan unumli foydalangan bo'lsa — 5 ball; • ko'rgazma va tarqatma materiallardan qisman foydalangan bo'lsa — 3 ball; • ko'rgazma va tarqatma materiallardan umuman foydalanmagan bo'lsa — 0 ball	5
3	Mashg'ulot vaqtining kun tartibiga mosligi.	Mashg'ulot vaqti kun tartibiga mos bo'lsa — 5 ball, mos bo'lmasa — 0 ball	5
4	O'tilayotgan mashg'ulotning rejaga mosligi.	O'tilayotgan mashg'ulot rejaga mos bo'lsa — 5 ball, mos bo'lmasa — 0 ball	5
5	Mashg'ulot davomiyligiga rioya etilganligi.	Mashg'ulot belgilangan davomiylikka rioya etilgan bo'lsa — 5 ball, rioya etilmagan bo'lsa — 0 ball	5
6	Tarbiyachi tomonidan zarur hollarda tarbiyalanuvchilar o'z faoliyatini yakunlashlari uchun qo'shimcha vaqt berilganligi.	Tarbiyachi zarur hollarda tarbiyalanuvchilarning o'z faoliyatini yakunlashlari uchun qo'shimcha vaqt bergan bo'lsa — 5 ball, qo'shimcha vaqt bermagan bo'lsa — 0 ball	5
7	Mashg'ulot davomida o'yin faoliyatiga asoslanganligi, tarbiyalanuvchilarning bir-birlari bilan muloqotga kirishga undaydigan o'yin va mashqlardan foydalanilganligi.	Tarbiyachi tomonidan mashg'ulot davomida tashkil etilgan har bir harakat o'yin tarzida olib borilgan bo'lsa, bir-birlari bilan muloqotga kirishga undaydigan o'yin va mashqlardan foydalansa — 5 ball, qisman — 3 ball, aks holda — 0 ball	5
8	Tarbiyachining tarbiyalanuvchilar ismlarini aytib murojaat qilganligi.	Tarbiyachi murojaati davomida: • barcha tarbiyalanuvchilarning ismlarini aytib murojaat qilsa — 5 ball; • faqat ayrim tarbiyalanuvchilarni ismlarini aytib murojaat qilsa — 3 ball; • umuman ismlarini aytib murojaat qilmasa — 0 ball	5
9	Tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga do'stona va vazminlik bilan murojaat qilganligi.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga do'stona va vazminlik bilan murojaat qilsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
10	Bahs (tortishuv) yuzaga kelganida tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga muammoni aniqlash va uning yechimini topishda yordam berganligi.	Tarbiyalanuvchilar o'rtasida bahs (tortishuv) yuzaga kelganida tarbiyachi tomonidan uning yechimini topishga yordam berilsa — 5 ball, aks holda — 0 ball <i>Izoh: Agar mashg'ulot davomida bunday vaziyat yuzaga kelmasa "5" ball qo'yiladi.</i>	5
11	Tarbiyachi faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga jismoniy jazo, ruhiy bosim yoki majburlash usullarini qo'llamadi.	Tarbiyachi faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga jismoniy jazo, ruhiy bosim yoki majburlash usullari qo'llanilsa — 0 ball, aks holda — 5 ball	5

12	Tarbiyachining mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarga mahalliy an'ana va qadriyatlarni singdiradigan jumladan foydalanganligi, milliy o'yinlar, raqs, qo'shiq va manzarali g'oyalar elementlarini kirita olganligi.	Tarbiyachi mashg'ulotni tarbiyalanuvchilar ongiga mahalliy an'ana va qadriyatlarni singdirgan holda olib borsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
13	Tarbiyachi mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilarga xavfsizlik qoidalari va guruhda o'zini tutish qoidalarini eslatib borganligi.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga xavfsizlik qoidalari va guruhda o'zini tutish qoidalarini muntazam ravishda eslatib borsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
14	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning savol, shubha va e'tirozlariga javob bera olganligi.	Tarbiyalanuvchilarning savol, shubha va e'tirozlariga to'liq javob bera olsa - 5 ball, savol, shubha va e'tirozlariga e'tibor qaratsa, lekin javob bera olmasa — 3 ball, umuman e'tibor qaratmasa — 0 ball <i>Izoh: Tarbiyachi mashg'ulot davomida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, ularda turli savol va e'tirozlar bo'lishi uchun turli muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi lozim. Agar jarayonda bolalar tomonidan bironta savol berilmasa yoki shubha, shuningdek e'tirozlar paydo bo'lmasa bunday holatlarda ham 0 ball beriladi.</i>	5
15	Tarbiyachining mashg'ulot davomida qo'llagan pedagogik usul va uslublari har bir tarbiyalanuvchini faol bo'lishiga unday olganligi.	Tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchini mashg'ulotda faol bo'lishiga unday olgan bo'lsa — 5 ball, faqat ayrim tarbiyalanuvchilarni unday olgan bo'lsa — 3 ball, aks holda — 0 ball	5
16	Tarbiyachi kundalik rejaga asosan tarbiyalanuvchilarning o'z xohish-istaklariga ko'ra rivojlantiruvchi markazlarni tanlash imkonini berganligi.	Tarbiyachi kundalik rejaga asosan tarbiyalanuvchilarning o'z xohish-istaklariga ko'ra rivojlantiruvchi markazlarni tanlash imkonini bergan bo'lsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
17	Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarga o'quv materiallarni tanlash imkonini berilganligi.	Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarga o'quv materiallarni tanlash imkonini berilgan bo'lsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
18	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni boshqa rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatini rag'batlantirgan holda uning qiziqishi sust bo'lgan tomonlarini rivojlantirishga undaydi.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchini boshqa rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatini rag'batlantirgan holda uning qiziqishi sust bo'lgan tomonlarini rivojlantirishga undasa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
19	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan mavzu asosida ularning kuzatish va amaliy jarayondagi fikrlarini so'raganligi, o'z fikr va xohishlarini ifoda qilishga unday olganligi.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan mavzu asosida ularning kuzatish va amaliy jarayondagi fikrlari bilan qiziqib so'rasa — 5 ball, aks holda 0 ball	5
20	Guruh uchun rejalashtirilgan faoliyat turini bajarish bolalar uchun qiyinlik qilsa, tarbiyachi faoliyat turini ular bajara oladigan boshqa topshiriqqa o'zgartirdimi.	Guruh uchun rejalashtirilgan faoliyat turi tarbiyalanuvchilar bajarishida qiyinchilik tug'dirsa, pedagog faoliyat turini har bir bola o'zlashtira oladigan harakatga o'zgartirsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5

21	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda qoʻrquv, gʻazab va boshqa salbiy tuygʻular vujudga kelgan hollarda ularni yengish yoʻllarini oʻrgatganligi.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda qoʻrquv, gʻazab kabi salbiy tuygʻular vujudga kelgan hollarda ularni yengish yoʻllarini oʻrgatsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
22	Tarbiyachining bolalarga nisbatan teng va samimiy munosabatda boʻlishi.	Tarbiyachi barcha tarbiyalanuvchilarga nisbatan teng va samimiy munosabatda boʻlsa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
23	Tarbiyachi syujetli-rolli oʻyinlarda gender stereotiplariga muvofiq rollarni taqsimlaganligi.	Tarbiyachi syujetli-rolli oʻyinlarda gender stereotiplarga muvofiq rollarni taqsimlasa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5
24	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni guruhda faoliyat olib borilayotgan taʼlim tilida muloqot qilishga chaqirganligi va mashgʻulot davomida tushunarsiz boʻlgan soʻzlarning maʼnosini izohlab berganligi.	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni guruhda faoliyat olib borilayotgan taʼlim tilida muloqot qilishga undab, tushunarsiz boʻlgan soʻzlarning maʼnosini izohlab borsa — 5 ball, muloqot qilishga undasa, lekin tushunarsiz boʻlgan soʻzlarning maʼnosini tushuntirmasa — 3 ball, aks holda — 0 ball	5
25	Tarbiyachining mashgʻulot davomida kitoblardan foydalangan holda bolalarga kitob oʻqib berganligi.	Tarbiyachi mashgʻulot davomida tarbiyalanuvchilarga kundalik mavzu asosida kitob oʻqib bersa — 5 ball, aks holda — 0 ball	5

Komissiya raisi

Aʼzolari

4-jadval

№	FISH	Fani	Sinfi	O'qituvchi o'tayotgan dars mavzusi e-maktab platformasidagi mavzuga mos keladi	O'qituvchi dars jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydalangan	O'qituvchi dars jarayonini hayotga bog'lagan holda (kompetensiyaviy yondashuvlar asosida) tashkil etgan	O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etishiga erishgan	Zamonaviy texnologiyalar va Internet manbalari hisobga olingan holda dars mashg'uloti tashkil etilgan	O'qituvchi har bir o'quvchining mashg'ulot davomida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi	O'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchining o'z fikri, istaklari, g'oyalari va munosabatlarini ifoda etishiga imkoniyat yaratgan	O'qituvchi o'z vaqtida o'quvchilar davomati aniqlandi, o'quvchilar faolligi baholandi	Jami
1												
2												
3												
4												
5												
6												
7												
8												
9												
10												
11												
12												

Komissiya raisi

A'zolari

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini tashqi baholash tartibi

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda-ta’lim tashkiloti) faoliyatini tashqi baholash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi 91-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan hamda davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur nizomga ko‘ra, ta’lim tashkilotlari faoliyatini **tashqi baholash** ichki baholash o‘tkazilganidan keyin ularning faoliyatini vazirlik yoki ta’lim tashkilotlarining murojaatiga ko‘ra respublikada tan olingan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan baholash hisoblanadi.

Tashqi baholash jarayonida ta’lim tashkiloti faoliyati attestatsiya ko‘rsatkichlari va mezonlari asosida baholanib, ta’lim sifati va mazmuni davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligi aniqlanadi, mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Har yili 1-oktabrga qadar ta’lim tashkilotlarini tashqi attestatsiyadan o‘tkazish jadvali vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur jadval asosida attestatsiyadan o‘tadigan ta’lim tashkilotlarida tashqi baholash boshlanishidan kamida kamida bir oy oldin ichki baholash natijalari vazirlikka yuboriladi va onlayn akkreditatsiya platformasiga joylashtiriladi. Tashqi baholash 3 ish kuni davomida o‘tkaziladi.

Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish maqsadida quyidagi bosqichlar asosida tashqi baholash amalga oshiriladi:

- Ta’lim tashkilotining faoliyatini ichki baholash natijalari bo‘yicha olingan ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish;
- Ta’lim tashkiloti ta’lim sifati va mazmunining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga muvofiqligi hamda ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlarining sifati va samaradorligini baholash;
- Ta’lim sifati oshirish va ta’lim xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;
- Ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash yuzasidan xulosa tayyorlash hamda vazirlikka taqdim etish.

Vazirlikning rasmiy akkreditatsiya platformasi ishga tushgunga qadar attestatsiyaga oid jadvallar va boshqa hujjatlar vazirlik tomonidan quyi boshqaruv tashkilotlar orqali ta’lim tashkilotlariga yetkazib beriladi.

Attestatsiya komissiyasining faoliyatini rejalashtirish va tashqi baholashni tashkil etish

Ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash jarayoni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy tashkilotlar) boshliqlari — tashqi attestatsiya komissiyasi raisining buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

Mazkur buyruq bilan tashqi attestatsiya komissiyasi tarkibi, uning qoshida faoliyat ko‘rsatuvchi ekspertlar guruhi tarkibi tasdiqlanadi.

Tashqi baholash komissiyasi kamida 13 kishidan iborat tarkibda (kelishuv asosida) tuzilib, unga hududiy tashkilotlar mutaxassislari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlari, boshqa vazirlik va tasarrufidagi tashkilotlarning mas’ul xodimlari, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab rahbarlari, o‘rinbosarlari jalb etiladi. Komissiya tarkibiga xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin.

Ta’lim tashkilotlarini tashqi attestatsiyadan o‘tkazish uchun ekspertlar vazirlik tomonidan

shakllantirilgan ekspertlar reyestridan tanlab olinadi.

Hududiy tashkilotlar tomonidan vazirlik bilan kelishgan holda har bir ta'lim tashkilotlarining tashqi baholashdan o'tish kunlari belgilanadi.

Tashqi baholash ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatiga baho berish, ta'lim-tarbiya jarayonining davlat talablari hamda davlat ta'lim standartlariga mosligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Tashqi attestatsiya jarayonida ekspertlar guruhi tomonidan ta'lim tashkilotlarining oxirgi ikki yillik faoliyati 3 kun davomida kompleks tahlil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablar asosida baholash metodikasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga (keyingi o'rinlarda – MTT) qo'yiladigan talablar asosida baholash keltirilgan sohalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotining faoliyati **4 ta** soha, **14 ta** mezon va **41 ta** ko'rsatkich asosida o'rganilib, jami **500 ballik** tizimda baholanadi.

Shu bilan birga, 6-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarni rivojlanishini kuzatish jarayonlari alohida **100 ballik** tizimida baholanadi.

SOHALAR	MEZONLAR
TA'LIM-TARBIYA JARAYONI.	“Ilk qadam” davlat o'quv dasturining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilganligi.
	Tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini kuzatish jarayonining tashkil etilganligi.
	O'quv-metodik materiallarning (tarbiyalanuvchilarda foydalanish imkoniyatining) mavjudligi va qo'llanilish darajasi.
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz, rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitining tashkil etilishi.
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya muhiti (inklyuziya).
BOSHQARUV SIYOSATI VA KADRLAR SALOHİYATI.	Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini belgilovchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida boshqaruvning tashkil etilganligi.
	Rahbar va tarbiyachi pedagog kadrlar salohiyati.
	Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvatiga mutanosibligi.
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITI.	Moddiy-texnik bazaning holati va tarbiyalanuvchilar rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar.
	Tarbiyaviy ishlar samaradorligi.
	AKT bilan ta'minlanganlik darajasi va infratuzilmasi.
	Ovqatlantirish tizimining mavjud sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq tashkil etilganligi.
JAMOATCHILIK VA HAMKORLIK.	Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik ishlari.
	Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik ishlari.

MTTlar bo'yicha tasdiqlangan ekspertlar tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. MTTda o'tkazilgan ichki baholash natijalari asosida to'plangan hujjatlarning haqqoniyligi o'rganiladi;

2. tarbiyachi-pedagoglarning o'quv faoliyati (mashg'ulotlari) kuzatiladi;

3. tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi kuzatilib, rivojlanish xaritasidagi qaydlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi;

4. pedagog va ota-onalar o'rtasida ijtimoiy so'rovnomalar olinadi;

5. ichki baholashda so'rovnomalarning haqqoniy o'tkazilganligini aniqlash maqsadida pedagog hamda ota-onalardan ixtiyoriy ravishda intervyu (suhbat) o'tkaziladi.

**Umumiy oʻrta taʼlim maktablariga qoʻyiladigan talablar
asosida baholash metodikasi**

Umumiy oʻrta taʼlim maktablar (keyingi oʻrinlarda–maktab) faoliyati **6 ta soha, 13 ta mezon** va **48 ta koʻrsatkich** orqali baholash amalga oshiriladi hamda **1000 ballik** tizimda baholanadi.

Shu bilan birga, bitiruvchi sinf oʻquvchilaridan olinadigan nazorat ishlari alohida **100 ballik** tizimida baholanadi.

SOHALAR	MEZONLAR
UMUMIY OʻRTA TAʼLIM MAKTABINI BOSHQARISH.	Umumiy oʻrta taʼlim maktabi faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish.
	Rahbariyat faoliyati va strategik rejalashtirish.
TAʼLIM SIFATI.	Oʻqituvchilar faoliyatining asosiy yoʻnalishlari.
	Maktab oʻquvchilarining akademik natijalarini baholash.
	Maktab oʻquvchilarining noakademik natijalarini baholash.
OʻQUV JARAYONINI TASHKIL ETISH HAMDA MAʼNAVIY-MAʼRIFIY ISHLAR SAMARADORLIGI.	Oʻquv jarayonining tashkil etilishini baholash.
	Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligi.
MUASSASADA QULAY SHART-SHAROITLARNING YARATILGANLIGI VA INFRATUZILMASI.	Maktabda laboratoriya tajribalari va amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazish imkoniyatining mavjudligi.
	Umumiy oʻrta taʼlim maktabida axborot texnologiyalari infratuzilmasi.
JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK VA TARGʻIBOT ISHLARI.	Ota-onalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik yoʻlga qoʻyilganligi.
	Targʻibot ishlarini yoʻlga qoʻyilganligi.
XAVFSIZLIK.	Maktab hududining kuzatuv kameralari bilan qamrab olinganligi.
	Taʼlim muassasasida oʻquvchilar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratilganligi.

Maktablarida belgilangan fanlardan oʻtkaziladigan nazorat ishlari uchun yozma ish, diktant matnlari, testlar koʻp variantlilik koʻrinishida vazirlik tomonidan tayyorlanadi va ekspertizadan oʻtkaziladi.

Ekspertizadan oʻtgan nazorat ishlari hududiy tashkilotlarga elektron pochta yoki kuryerlar orqali yetkaziladi hamda tashqi attestatsiya uchun joriy etiladi.

Maktablarning faoliyatini tashqi baholash ekspertlar guruhi tomonidan ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Maktablarda oʻtkazilgan ichki baholash natijalari tahlil qilinadi. Bunda ichki baholash natijalarining haqqoniyligi joyida oʻrganiladi.

2. Oʻqituvchilarning dars mashgʻulotlari tahlil qilinadi, pedagog xodimlar va ota-onalar oʻrtasida soʻrovnoma oʻtkaziladi. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi boshligʻi kuzatuv ostida bitiruvchi (4-, 9- va 11-sinf)lardan nazorat ishlari olinadi.

Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash.

Tashqi baholash komissiyasi aʼzolari hamkorligida ekspertlar guruhi taʼlim tashkilotlarida quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

1-kun.

Ekspertlar guruhi birlashtirilgan taʼlim tashkilotlariga tashqi baholash komissiyasi aʼzolari bilan birgalikda soat 8-00 dan kechikmagan holda yetib boradi.

Tashqi baholash komissiyasi tomonidan taxminan soat 8-30 dan 9-00 gacha ekspert

a'zolari, ta'lim tashkiloti ma'muriyati, tarbiyachi va yordamchi tarbiyachilar hamda dars jarayonida ishtirok etayotgan pedagoglardan tashqari pedagog-xodimlar ishtirokida yig'ilish o'tkazadi. Yig'ilish jarayonida ta'lim tashkiloti jamoasiga tashqi baholash o'tkazish tartibi va uning natijalari to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi. Yig'ilish bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Shundan so'ng, ta'lim tashkilotining pedagog jamoalariga ruxsat berilib, soat 9-00 dan 9-30 gacha attestatsiya jarayonining tashkiliy masalalari, ya'ni tashqi baholash komissiyalari hamda ekspert a'zolarining ish taqsimotlari (hujjatlarni o'rganish, mashg'ulotlarni va dars tahlillarini o'tkazish, tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini o'rganish, bitiruvchi sinflardan nazorat ishlarini olish uchun bitta qavatdan yonma-yon sinf xonalar ajratish hamda so'rovnoma olish uchun ota-onalarni taklif etish vaqti va boshqalar) belgilab olinadi, uning ijrosi bo'yicha ta'lim tashkiloti rahbariyatiga tegishli topshiriqlar beriladi.

Soat 9-30 dan 12-30 gacha ekspertlar guruhi tomonidan MTTdagi tayyorlov guruhi tarbiyachilarining 100 foizi, qolgan katta, o'rta, kichik guruhi tarbiyachilarining 50 foizi mustaqil ravishda tanlab olingan holda o'quv faoliyati, maktabdagi mavjud jami o'qituvchilarning kamida 30 foizining mashg'ulotlari tahlil qilinadi va quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

T\r	Mezonlar
1	Tarbiyachining yillik mavzuviy reja asosida tarbiyalanuvchilar rivojlanish sohalarini integratsiyalagan holda ta'lim faoliyatini olib borganligi.
2	Tarbiyachining mashg'ulot mavzusiga oid ko'rgazma va tarqatma materiallardan foydalanganligi.
3	Mashg'ulot vaqtining kun tartibiga mosligi.
4	O'tilayotgan mashg'ulotning rejaga mosligi.
5	Mashg'ulot davomiyligiga rioya etilganligi.
6	Tarbiyachi tomonidan zarur hollarda tarbiyalanuvchilar o'z faoliyatini yakunlashlari uchun qo'shimcha vaqt berilganligi.
7	Mashg'ulot davomida o'yin faoliyatiga asoslanganligi, tarbiyalanuvchilarning bir-birlari bilan muloqotga kirishga undaydigan o'yin va mashqlardan foydalanilganligi.
8	Tarbiyachining tarbiyalanuvchilarning ismlarini aytib murojaat qilganligi.
9	Tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga do'stona va vazminlik bilan murojaat qilganligi.
10	Bahs (tortishuv) yuzaga kelganida tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga muammoni aniqlash va uning yechimini topishda yordam berganligi.
11	Tarbiyachi faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga jismoniy jazo, ruhiy bosim yoki majburlash usullarini qo'llamadi.
12	Tarbiyachining mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarga mahalliy an'ana va qadriyatlarni singdiradigan jummalardan foydalanganligi, milliy o'yinlar, raqs, qo'shiq va manzarali g'oyalar elementlarini kirita olganligi.
13	Tarbiyachi mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilarga xavfsizlik qoidalari va guruhda o'zini tutish qoidalari eslatib borganligi.
14	Tarbiyachi tarbiyalanuvchining savol va shubha (e'tiroz)lariga javob bera olganligi.
15	Tarbiyachining mashg'ulot davomida qo'llagan pedagogik usul va uslublari har bir tarbiyalanuvchini faol bo'lishiga unday olganligi.
16	Tarbiyachi kundalik rejaga asosan tarbiyalanuvchilarning o'z xohish-istaklariga ko'ra rivojlantiruvchi markazlarni tanlash imkonini berganligi.
17	Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarga o'quv materiallarni tanlash imkonini berilganligi.
18	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni boshqa rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatini rag'batlantirgan holda uning qiziqishi sust bo'lgan tomonlarini rivojlantirishga undaydi.
19	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan mavzu asosida ularning kuzatish va amaliy jarayondagi fikrlarini so'rganligi, o'z fikr va xohishlarini ifoda qilishga unday olganligi.
20	Tarbiyalanuvchilar uchun guruhga rejalashtirilgan faoliyat turini bajarish qiyinlik qilsa, tarbiyachi faoliyat turini ular bajara oladigan boshqa topshiriqqa o'zgartirdimi.
21	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda qo'rquv, g'azab va boshqa salbiy tuyg'ular vujudga kelgan hollarda ularni yengish yo'llarini o'rgatganligi.
22	Tarbiyachining bolalarga nisbatan teng va samimiy munosabatda bo'lishi.
23	Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarda gender stereotiplariga muvofiq rollarni taqsimlaganligi.

24	Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni guruhda faoliyat olib borilayotgan ta'lim tilida muloqot qilishga chaqirganligi va mashg'ulot davomida tushunarsiz bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlab borganligi.
25	Tarbiyachining mashg'ulot davomida kitoblardan foydalangan holda mavzu asosida bolalarga kitob o'qib berganligi.

Maktablarda darslarni tahlil qilish quyidagi mezonlar orqali amalga oshiriladi.

№	Mezonlar
1	O'qituvchi o'tayotgan dars mavzusi e-maktab platformasidagi mavzuga mos keladi.
2	O'qituvchi dars jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydalangan.
3	O'qituvchi dars jarayonini hayotga bog'lagan holda (kompetensiyaviy yondashuvlar asosida) tashkil etgan.
4	O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishiga erishgan.
5	Zamonaviy texnologiyalar va internet manbalari hisobga olingan holda dars mashg'uloti tashkil etilgan.
6	O'qituvchi har bir o'quvchining mashg'ulot davomida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi.
7	O'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchining o'z fikri, istaklari, g'oyalari va munosabatlarini ifoda etishiga imkoniyat yaratgan.
8	O'qituvchi o'z vaqtida o'quvchilar davomati aniqlandi, o'quvchilarning faolligiga qarab baholangan hamda kelgusi dars mashg'uloti uchun uyga vazifalarni elektron jurnalga qayd etgan.

MTTlarda tanlangan guruhlarining o'quv faoliyati (mashg'ulotlar)ni o'rganish uchun 1 kun (o'quv faoliyatni o'rganish uchun 1 kun yetarli bo'lmagan taqdirda, 2-3-kunlarda davom ettirilishi mumkin) hamda tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini kuzatish uchun 3 kun ajratilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, har bir tayyorlov guruhidagi kamida 20 foiz tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi kuzatiladi hamda natijalari rasmiylashtiriladi.

Izoh: Bolalarni maktabga tayyorlov guruhlarining har biriga o'quv faoliyatni kuzatish uchun 1 nafardan hamda rivojlanish darajasi kuzatiladigan har 2 nafar tarbiyalanuvchilarga 1 nafardan ekspertlar kiradi.

Masalan, 1 ta tayyorlov guruhida 30 nafar tarbiyalanuvchilar bo'lsa, ushbu guruhga 4 nafar ekspertlar kiradi, ya'ni 1 nafari o'quv faoliyatni kuzatsa, 3 nafari guruhdagi 20 foiz (6 nafar) tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini kuzatadi.

Tayyorlov guruhidan boshqa guruh (kichik, o'rta, katta) tarbiyachilarining o'quv faoliyati (mashg'ulot)ni kuzatish uchun 1 nafar ekspert jalb qilinadi. Shunda guruhlar sonidan kelib chiqib, attestatsiya jarayoniga jalb qilinadigan ekspertlar sonini oldindan belgilash mumkin.

Ekspertlar guruhi tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini 3 kun davomida rivojlanishning 5 ta sohasi bo'yicha kuzatadi. Bunda, minimal talablar (6 yosh indikatorlari) asosida ularning kuzatuv kunida ko'rsatkichlarni bajara olishining rivojlanish xaritasida qayd etilgan natijalarga moslik darajasi tahlil qilinadi.

Agar ushbu kunda tayyorlov guruhidagi belgilangan 6 yoshli bolalarning rivojlanish darajasini o'rgangan ekspert attestatsiyaning 2-kunida ma'lum sabablarga ko'ra kelmay qolgan taqdirda boshqa ekspert shu bolalarning rivojlanish darajasini o'rgangan holda jarayonni davom ettiradi. Agar attestatsiyaning 1-kunida rivojlanish darajasi o'rganilgan tarbiyalanuvchi attestatsiyaning 2-kunida ma'lum sabablarga ko'ra MTTga kelmay qolsa, u holda boshqa tanlab olingan tarbiyalanuvchi misolida qolgan ko'rsatkichlar bo'yicha o'rganiladi. Belgilangan 2.5.1-jadvalga rivojlanish darajasi o'rganilgan barcha bolalarning natijalari qayd etiladi.

Kuzatuv kunida ekspertlarning tarbiyalanuvchilarni barcha sohalar bo'yicha rivojlanish darajasini aniq baholay olishlari uchun attestatsiyadan o'tadigan MTT tarbiyachi-pedagoglaridan katta mahorat talab qilinadi.

Agar kuzatuv kunida pedagog tomonidan turli sabablarga ko'ra sohalar kesimida (Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasidan tashqari) o'tiladigan mavzu bo'yicha barcha indikatorlar to'liq ishlamas, u holda kuzatuvchi mashg'ulotning so'nggi 10 daqiqasida jarayonga xalaqit bermasdan tarbiyachi-pedagogga eslatma berishi, tarbiyachi esa o'z navbatida indikatorlarning to'liq ishlab ketishiga qo'shimcha imkoniyat yaratishi kerak.

Kuzatuvdagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi kuzatuv

xaritasida qayd etilgan natijalarga mosligi quyidagicha baholanadi:

Kuzatilgan indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi o'rtasida farq,

-25% va undan kam bo'lsa — 5 ball,

-25%-44% bo'lsa — 3 ball,

-45% va undan ko'p bo'lsa — 0 ball bilan baholanadi.

MTTdagi qolgan katta, o'rta, kichik guruhlariga 1 nafardan ekspertlar ajratiladi hamda ular tanlab olingan guruh tarbiyachilarining mashg'ulotlarini belgilangan vaqt davomida tahlil qiladi.

Soat 13-30 dan 17-30 gacha ekspertlar guruhi MTTlarda **4 ta soha**, umumiy o'rta ta'lim maktablarida belgilangan **6 ta soha** bo'yicha ichki baholash natijalarining haqqoniyligini o'rganib chiqadi va kerakli holatda tegishli o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Soat 17-30 dan 18-00 gacha kun davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha muhokama yig'ilishi o'tkaziladi.

O'rganish natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma (xulosa) "**Tashqi baholash natijalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tashqi attestatsiya komissiyasining xulosasi**" asosida tayyorlanadi.

Ichki baholash natijalari va boshqa taqdim etilgan hujjatlarda haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi ta'lim tashkilotining "**attestatsiyadan o'tmadi**" deb e'tirof etilishiga sabab bo'ladi, lekin ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilash va chora-tadbirlar rejasiga kiritish maqsadida tashqi baholash jarayoni oxirigacha davom ettiriladi.

2-kun

Tashqi baholash komissiyasi va uning qoshida tashkil etilgan ekspertlar guruhi ta'lim tashkilotiga soat 8-00 dan kechikmagan holda yetib boradi.

MTTlarda tashqi baholash komissiyasi a'zolari va ekspertlar 3 ta guruhlariga bo'lingan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

1-guruh soat 9-30 dan 12-30 gacha (o'quv faoliyatini tahlil qilish MTTning kun tartibiga muvofiq amalga oshiriladi) belgilangan tarbiyachilarning o'quv faoliyatini tahlil qiladi hamda tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini kuzatadi va natijalarini rasmiylashtiradi.

2-guruh soat 9-30 dan 12-30 gacha MTTdagi tegishli hujjatlarni tahlil qiladi.

3-guruh soat 9-30 dan 12-30 gacha tarbiyalanuvchilarning ota-onalari o'rtasida so'rovnoma o'tkazadi. So'rovnomaga jami ota-onalarning kamida 20 foizi jalb etilishi lozim.

Shundan so'ng 1- va 2-guruhlar soat 13-30 dan 17-30 gacha MTTdagi tegishli hujjatlarni tahlil qilsa, 3-guruh 13-30 dan 14-30 gacha pedagog xodimlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazadi. 14-30 dan 17-30 gacha ota-onalar hamda pedagog xodimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini umumlashtiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham ekspertlar 3 ta guruhga bo'lingan holda bitiruvchi 4-, 9-, 11-sinf o'quvchilari bilim darajasining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganadi. Bunda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlari tashqi attestatsiya jarayonida nazorat ishlarini olishga mas'ul hisoblanadi.

1-guruh soat 8-50 dan 10-25 gacha vazirlik tomonidan taqdim etilgan nazorat ishi materiallari asosida qur'a tashlash orqali tanlab olingan 1 ta 4-sinfdan nazorat ishlarini o'tkazadi.

2-guruh soat 8-50 dan 13-05 gacha vazirlik tomonidan taqdim etilgan nazorat ishi materiallari asosida qur'a tashlash orqali tanlab olingan 1 ta 9-sinfdan nazorat ishlarini o'tkazadi.

3-guruh soat 8-50 dan 13-05 gacha vazirlik tomonidan taqdim etilgan nazorat ishi materiallari asosida qur'a tashlash orqali tanlab olingan 1 ta 11-sinfdan nazorat ishlarini o'tkazadi.

Soat 14-00 dan 17-30 gacha ekspertlar guruhi tomonidan o'quvchilardan olingan nazorat ishlari baholash mezonlari asosida tekshirilib baholanadi va natijalari umumlashtirilib, tegishli jadvallar to'ldiriladi.

Izoh: Nazorat ishlarini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish tavsiya etiladi:

4-sinf o'quvchilaridan matematika fanidan olinadigan nazorat ishlari 3 ta misol va 1 ta masaladan, ona tili fani diktantdan iborat bo'ladi. Misol va masalalarning murakkablik darajasi hamda ona tilidan diktant davlat ta'lim standartlariga mos va sinf kesimida o'tilgan mavzular doirasida bo'lishi talab etiladi.

9-, 11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan nazorat ishlari baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli) topshiriqlari asosida test shaklida, murakkablik darajasi DTS talablariga mos va sinflar kesimida o'tilgan mavzular doirasida bo'ladi. Baholashning yangi tizimi (formativ va summativ baholash usuli) joriy etilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bitiruvchi sinf (9- va 11-sinf) o'quvchilarining o'zlashtirish natijalari hisobga olinadi hamda ulardan nazorat ishlari olinmaydi.

Nazorat ishlarida qatnashgan o'quvchilarning 45 foizi va undan ko'pi qoniqarsiz baholansa **"attestatsiyadan o'tmadi"** deb e'tirof etiladi, lekin maktab faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilash va chora-tadbirlar rejasiga kiritish maqsadida tashqi baholash jarayoni oxirigacha davom ettiriladi.

Soat 17-30 dan 18-00 gacha kun davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha muhokama yig'ilishi o'tkazilib, ekspert guruhlarining hisobotlari eshitaladi.

3-kun

Tashqi baholash komissiyasi a'zosi va ekspertlar guruhi ta'lim tashkilotiga soat 8-00 dan kechikmagan holda yetib boradi.

Soat 8-30 dan 9-30 gacha kunlik ishlar taqsimoti belgilab olinadi.

MTTlarda 2 ta guruhga bo'lingan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

1-guruh soat 8-30 dan 12-00 gacha belgilangan tarbiyachilarning o'quv faoliyatini tahlil qiladi (o'quv faoliyatini tahlil qilish MTTning kun tartibiga muvofiq amalga oshiriladi) hamda tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini kuzatadi. Kuzatuv natijalarini rasmiylashtirib, umumiy jadvallarga kiritish uchun 2-guruhga taqdim etadi.

2-guruh soat 8-30 dan 12-30 gacha tashqi baholash jarayonida olingan barcha natijalarni umumlashtiradi.

1-guruh soat 13-30 dan 16-30 gacha hujjatlar tahlili, faoliyat kuzatuv, mashg'ulot tahlillari, tarbiyalanuvchilarining rivojlanish darajasini kuzatuv hamda tarbiyalanuvchilarning ota-onalaridan olingan so'rovnoma varaqalarining qo'lyozma nusxalarini tikadi.

2-guruhlar soat 13-30 dan 16-30 gacha natijalar va shakllantirilgan ilovalar asosida soha jadvallari to'ldiriladi va umumiy ball chiqariladi.

1- va 2-guruhlar tomonidan soat 16-30 dan 17-30 gacha tikilgan barcha ishlar qutiga joylashtiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham 2 ta guruhga bo'lingan holda, quyidagi vazifalarni bajarishadi:

1-guruh soat 8-50 dan 13-05 gacha maktabda mavjud jami o'qituvchilarning kamida 20 foizini darslarini tahlil qiladi.

2-guruh soat 8-50 dan 13-05 gacha pedagoglar, o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida so'rovnoma o'tkazadi.

Izoh: So'rovnomaga maktabda faoliyat ko'rsatayotgan jami o'qituvchilarning kamida 30%i hamda 1 ta 9-sinf va 1 ta 11-sinf o'quvchilari jalb qilinadi. Sinflar soni 1 tadan ortiq bo'lsa, 9- va 11-sinflardan qur'a tashlash yo'li bilan 1 tadan sinftanlab olinadi. Shuningdek, so'rovnomada ishtirok etadigan o'qituvchilar soniga teng miqdorda ota-onalar jalb qilinadi. Ota-onalarni maktabga jalb qilib berish maktab ma'muriyati tomonidan oldindan xabar berilgan bo'lishi zarur.

1-guruh soat 14-00 dan 16-00 gacha pedagoglar, o'quvchilar va ularning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari umumlashtirilib, jadvallar to'ldiriladi va imzolanadi.

2-guruh soat 14-00 dan 16-00 gacha 1-3-kunlar davomida o'tkazilgan dars tahlillari natijalarini umumlashtirib, tegishli jadvallarni to'ldiradi. Attestatsiya jarayonida olingan yozma ishlar, testlar va o'quvchilarning javob varaqalari sinflar va fanlar kesimida tikiladi.

Ta'lim tashkilotida o'tkazilgan tashqi attestatsiya jarayonlari bo'yicha to'plangan materiallar, to'ldirilgan jadvallar maxsus qutiga joylashtiriladi. Komissiya a'zolari va tashkilot

direktori guvohligida maxsus quti yelimlanib, muhrlanadi. Mazkur holat to'g'risida dalolatnoma tuziladi va imzolanadi. Ushbu dalolatnoma asosida maxsus quti tashkilot direktoriga topshiriladi. Maxsus quti keyingi attestatsiyaga qadar ta'lim tashkilotida saqlanadi.

Tashqi attestatsiya komissiyasining maktabgacha ta'lim tashkilotidagi faoliyati shu bilan yakunlanadi.

TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TASHQI BAHOLASH JARAYONIDA SO'ROVNOMALAR O'TKAZISH VA NATIJALARNI TAHLIL QILISH TARTIBI

Ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash jarayonida tarbiyachi-pedagog xodimlar, o'qituvchilar, ota-onalar hamda o'quvchilar o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkaziladi.

Bunda pedagog va rahbar xodimlar faoliyati, ta'lim muassasasidagi ijtimoiy- ma'naviy muhit, umumiy o'rta ta'lim muassasasida pedagog xodimlar uchun yaratilgan sharoitlar va ta'lim sifatini ta'minlash ko'rsatkichlari o'rganiladi.

So'rovnoma savollari tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda vazirlik tomonidan tuziladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING FAOLIYATI BO'YICHA OTA-ONALARDAN OLINADIGAN ANONIM SO'ROVNOMA

Hurmatli ota-onalar!

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni va boshqaruv sifatini yaxshilash maqsadida mazkur so'rovnomaning to'ldirib berishingizni so'raymiz. Sizing farzandingiz borayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti yuzasidan o'z fikrlaringizni quyidagi shakl bo'yicha bildirishingiz mumkin. Siz tomondan berilgan baho juda muhim.

Ko'rsatma: Iltimos, quyidagi savollarning to'g'risidagi javob variantlaridan faqat bittasini tanlang va o'sha katakka "+" belgisini qo'ying.

Kalitlar: A — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

Tvr	Savollar	A	B	C
1	Farzandingiz ishtiyoq bilan maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradimi, u yerda vaqtini qiziqish bilan o'tkazadimi?			
2	Farzandingiz tashkilotda o'zini xavfsiz his qiladimi?			
3	Tarbiyachi tomonidan farzandingizning qobiliyati uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantiriladimi?			
4	Farzandingizning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnovi davomida rivojlanishida yaxshi tomonga o'zgarishlar bo'ldimi?			
5	Farzandingiz kattalar va tengdoshlari bilan tezda muloqotga kirisha oladimi?			
6	Farzandingiz yoshiga mos bilim va ko'nikmalarga ega bo'lyaptimi?			
7	Tashkilot binosi, hududi va guruh xonalarining holati Sizni qoniqtiradimi?			
8	Farzandingiz guruhdagi o'yinchoqlar va kitoblarni o'zi tanlashi va ulardan foydalanishi mumkinmi?			
9	Tashkilot ma'muriyati yoki tarbiyachi farzandingizni emlanishi va tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi haqida Sizni oldindan ogohlantiradimi?			
10	Farzandingiz uchun yaratilgan kommunal sharoitlar (isitish tizimi, suv ta'minoti, hojatxonalar holati) Sizni qoniqtiradimi?			
11	Farzandingizga berilayotgan taomlar sifatidan mamnunmisiz, Sizni qoniqtiradimi?			
12	Sizingcha, guruhda pedagogik jarayonni sifatli tashkil qilish uchun kitoblar, qo'llanmalar va o'yinchoqlar soni yetarli?			
13	Farzandingizning tarbiyachisiga malakali, ijodkor va tajribali mutaxassis deb baho bera olasizmi?			
14	Tarbiyachilar farzandingizning yutuqlari va qiyinchiliklari borasida Sizni xabardor qilib turadilarmi?			
15	Siz guruhda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etish imkoniyatiga egamisiz?			
16	Siz Kuzatuv kengashi faoliyati bilan tanishmisiz, o'tgan yili Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotga egamisiz?			
17	Kuzatuv kengashi tomonidan olib borilayotgan ishlar Sizni qoniqtiradimi?			

Agar maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruv yoki ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini yaxshilash bo'yicha fikr-mulohazalaringiz yoki takliflaringiz bo'lsa, quyida yozib qoldirishingiz mumkin.

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

- A — So'rovnomada ishtirok etgan ota-onalar soni;
- B — A va B javoblarni belgilagan ota-onalar sonining yig'indisi;
- C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;
- D — Savollar soni.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING FAOLIYATI
BO'YICHA PEDAGOG VA ISHCHI XODIMLARDAN OLINADIGAN ANONIM
SO'ROVNOMA**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining faoliyatiga baho berish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnomaga barcha pedagog va ishchi xodimlar qamrab olinadi.

So'rovnoma o'tkazish jarayoni maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog va texnik xodimlarning ish faoliyatiga xalaqit bermasligi lozim.

Kalitlar: A — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

Tr	Savollar	A	B	C
1	Direktor tomonidan ta'lim-tarbiya sifatini oshirish bo'yicha xodimlardan takliflar so'raladi.			
2	Xodimlarni qo'shimcha rag'batlantirish berilishi shaffof, oshkora amalga oshiriladi.			
3	Bu jarayon mahalliylik asosida, qarindoshlar yoki yaqin tanishlar bir-birini qo'llagan holda amalga oshiriladi hamda direktorning manfaati yotadi.			
4	Pedagog va texnik xodimlarga maktabgacha ta'lim tashkiloti masalalarida faol qatnashishga imkoniyat bergan, ta'lim tashkilotini boshqarishda hamda tarbiyalanuvchilar manfaatini ko'zlab ko'plab yangiliklar yaratadi.			
5	Men o'z maktabgacha ta'lim tashkilotimni yaxshi ish joyi sifatida tavsiya qilgan bo'lardim.			
6	Men ishimdan mamnunman, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zimni erkin his qilaman hamda direktordan yetarli darajada yordam olaman.			
7	Muammolarni hal qilishda adolatli va mantiqiy qaror chiqaradi.			
8	Maktabgacha ta'lim tashkilotini kerakli material va jihozlar bilan ta'minlash uchun harakat qiladi.			
9	Xodimlarga adolatli teng muomalada bo'ladi, ularni ko'pchilikni oldida tanqid qilmaydi.			
10	Topshiriqlarni bajarishda o'zi namuna ko'rsatadi, xodimlar orasida hurmati baland.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

- A — So'rovnomada ishtirok etgan xodimlar soni;
- B — A va B javoblarni belgilagan xodimlar sonining yig'indisi;
- C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;
- D — Savollar soni.

**MAKTAB HAYOTINI TASHKIL ETISHDA O'QUVCHILARNING
FIKRLARI INOBATGA OLINGANLIGI YUZASIDAN ANONIM SO'ROVNOMA**

Tashqi baholash jarayonida maktab hayotini tashkil etishda o'quvchilarning fikrini o'rganish uchun olinadigan so'rovnomada 9- va 11-sinf o'quvchilari to'liq qamrab olinadi.

Kalitlar: A — qo‘shilaman; B — ba‘zan; C — bu fikrga qo‘shilmayman.

T/r	Savollar	A	B	C
1	Darslar o‘z vaqtida dars jadvali asosida o‘tiladi.			
2	Xorijiy tillar va kasbni o‘rganish uchun sharoitlar yaratilgan.			
3	To‘garaklar faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, mashg‘ulotlar muntazam olib boriladi.			
4	O‘quvchilar umumiy o‘rta ta‘lim maktabida o‘zlarini xavfsiz his qiladi.			
5	O‘quvchilarga umumiy o‘rta ta‘lim maktabi masalalarida faol qatnashishga imkoniyat beriladi.			
6	Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ma‘muriyati o‘quvchilar manfaatini ko‘zlab ko‘plab yangiliklar yaratadi.			
7	Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ma‘muriyati va o‘qituvchilar muammolarni hal qilishda adolatli va mantiqiy qaror chiqaradi.			
8	Kutubxonada badiiy adabiyotlar mavjud, o‘quvchilar bilimini oshirish uchun sharoit yetarli.			
9	O‘quvchilarni majburiy mehnatga jalb qilinmaydi.			
10	Men bu maktabga borganimdan faxrlanaman, do‘stlarimga ushbu maktabni tavsiya qilgan bo‘lardim.			

Izoh: O‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o‘rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

A — So‘rovnomada ishtirok etgan o‘quvchilar soni;

B — A va B javoblarni belgilagan o‘quvchilar sonining yig‘indisi;

C — Ko‘rsatkichga berilgan maksimal ball;

D — Savollar soni.

MAKTAB DIREKTORINING FAOLIYATI BO‘YICHA O‘QITUVCHI VA XODIMLARDAN OLINADIGAN ANONIM SO‘ROVNOMA

Maktabi direktorining faoliyatiga baho berish maqsadida o‘tkaziladigan so‘rovnoma o‘qituvchilar va texnik xodimlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Tashqi baholash jarayonida o‘tkaziladigan so‘rovnomaga barcha o‘qituvchi va ishchi xodimlar qamrab olinadi.

So‘rovnoma o‘tkazish jarayoni maktabdagi dars mashg‘ulotlariga xalaqit berilmasligi lozim.

O‘qituvchi va ishchi xodimlardan olinadigan so‘rovnoma namunasi

Kalitlar: A — qo‘shilaman; B — ba‘zan; C — bu fikrga qo‘shilmayman.

T/r	Savollar	A	B	C
1	Maktabda tahsil olayotgan o‘quvchilar, o‘qituvchilar hamda xodimlarga maktab masalalarida faol qatnashishga imkoniyat bergan, qarorlar qabul qilishda jamoaning fikrini inobatga olinadi.			
2	Rahbar tomonidan ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish bo‘yicha pedagog xodimlardan takliflar so‘raladi.			
3	Rag‘batlantirish va ustamalar belgilash hamda berilishi shaffof, oshkora amalga oshiriladi.			
4	Bu jarayon mahalliylik asosida, qarindoshlar yoki yaqin tanishlar bir-birini qo‘llagan holda amalga oshiriladi hamda maktabi direktorining manfaati yotadi.			
5	Pedagoglarning qadrlanishini his qilaman hamda ularni majburiy mehnatga jalb qilmaydi.			
6	Men ishimdan mamnunman, maktabda o‘zimni erkin his qilaman hamda direktordan yetarli darajada yordam olaman.			
7	Maktabda ta‘lim sifatini oshirish vazifalarini bajarish uchun yetarlicha o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi va resurslarni taqdim etadi.			
8	O‘quv reja va unga oid topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlaydi.			
9	Muammolarni hal qilishda adolatli va mantiqiy qaror chiqaradi hamda hodimlarga nisbatan ham adolatli teng muomalada bo‘ladi, ularni ko‘pchilikni oldida tanqid qilmaydi.			

10	Topshiriqlarni bajarishda o'zi namuna ko'rsatadi, o'qituvchilar orasida hurmati baland.			
11	O'qituvchilarni yuqori tashkilotlardan kelgan topshiriq va vazifalar bilan tanishtirib boradi.			
12	Jamoa orasida ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga harakat qiladi.			
13	Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori tomonidan dars va to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish hamda sinf jurnalini yuritishdan tashqari boshqa pedagogik yuklamalar yuzasidan hisobotlar va qo'shimcha ma'lumotlar talab qilinmaydi.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

A — So'rovnomada ishtirok etgan o'qituvchi va xodimlar soni;

B — A va B javoblarni belgilagan o'qituvchi va xodimlar sonining yig'indisi;

C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;

D — Savollar soni.

MAKTABDAGI TA'LIM SIFATI BO'YICHA OTA-ONALARDAN OLINADIGAN ANONIM SO'ROVNOMA

Maktab faoliyatini tashqi baholash jarayonida ta'lim sifatini ta'minlanish holati bo'yicha o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkaziladi hamda so'rovnomaga 4-, 9- va 11-sinf o'quvchilarining ota-onalari imkon qadar jalb etiladi.

O'quvchilarning ota-onalaridan olinadigan so'rovnoma namunasi

Hurmatli ota-onalar!

Sizning farzandingiz tahsil olayotgan umumiy o'rta ta'lim maktabi yuzasidan o'z fikrlaringizni quyidagi shakl bo'yicha bildirishingiz mumkin. Siz tomondan berilgan baho juda muhim.

Kalitlar: A — qo'shilaman; B — ba'zan; C — bu fikrga qo'shilmayman.

№	Savollar	A	B	C
1	Maktabda o'quvchilar uchun xavfsiz va qulay sharoitlar yaratilgan.			
2	Maktabda o'quvchilarni bo'sh vaqtlari mazmunli tashkil etiladi.			
3	Maktabda o'qituvchilar tomonidan yetarli ta'lim-tarbiya beriladi.			
4	O'qituvchilarning salohiyati kuchli hamda darslar o'z vaqtida to'liq o'tiladi.			
5	Ota-onalar bilan sinf rahbarining hamkorligi tizimli yo'lga qo'yilgan.			
6	Direktor ota-onalarga maktab masalalarida faol qatnashishga imkoniyat beradi.			
7	O'qituvchilar talabchan, o'quvchilarni adolatli baholaydi.			
8	Maktabda ota-onalar uchun "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazilib turiladi.			
9	Muntazam ravishda farzandimni o'zlashtirishini e-maktab platformasi orqali kuzatib boraman.			
10	Men uchun maktab hayoti qiziq, yangiliklarni kuzatib boraman.			

Izoh: O'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondent (ishtirokchi)larning natijalari umumlashtirilib, o'rtacha qiymati quyidagi formula asosida chiqariladi.

$$X = \frac{B * C}{A} / D$$

Bunda:

A — So'rovnomada ishtirok etgan ota-onalar soni;

B — A va B javoblarni belgilagan ota-onalar sonining yig'indisi;

C — Ko'rsatkichga berilgan maksimal ball;

D — Savollar soni.

TASHQI BAHOLASH JARAYONIDA TARBIVACHILAR HAMDA PEDAGOGLARNING DARS MASHG'ULOTLARINI TAHLIL QILISH METODIKASI

a) Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashqi baholash jarayonida faoliyat olib borayotgan barcha tarbiyachi-pedagoglarning dars mashg'ulotlari tahlil qilinadi.

Mashg'ulot tahlil qilinishida quyidagilar inobatga olinishi tavsiya qilinadi:

Tarbiyachi tomonidan yillik mavzuviy reja asosida tarbiyalanuvchilar rivojlanish sohalarini integratsiyalagan holda ta'lim faoliyatini olib borilganligi;

Tarbiyachining mashg'ulot mavzusiga oid ko'rgazma va tarqatma materiallardan foydalanganligi. Mashg'ulot vaqtining kun tartibiga mosligi;

O'tilayotgan mashg'ulotning rejaga mosligi;

Mashg'ulot davomiyligiga rioya etilganligi;

Tarbiyachi tomonidan zarur hollarda tarbiyalanuvchilar o'z faoliyatini yakunlashlari uchun qo'shimcha vaqt berilganligi;

Mashg'ulot davomida o'yin faoliyatiga asoslanganligi, tarbiyalanuvchilarning bir-birlari bilan muloqotga kirishga undaydigan o'yin va mashqlardan foydalanilganligi;

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilar ismlarini aytib murojaat qilganligi;

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga do'stona va vazminlik bilan murojaat qilganligi;

Bahs (tortishuv) yuzaga kelganida tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga muammoni aniqlash va uning yechimini topishda yordam berganligi;

Tarbiyachi faoliyat davomida tarbiyalanuvchilarga jismoniy jazo, ruhiy bosim yoki majburlash usullarini qo'llamadi;

Tarbiyachining mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarga mahalliy an'ana va qadriyatlarni singdiradigan jumladan foydalanganligi, milliy o'yinlar, raqs, qo'shiq va manzarali g'oyalar elementlarini kiritganligi;

Tarbiyachi mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilarga xavfsizlik qoidalari va guruhda o'zini tutish qoidalarini eslatib berganligi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning savol, shubha va e'tirozlariga javob bera olganligi;

Tarbiyachining mashg'ulot davomida qo'llagan pedagogik usul va uslublari har bir tarbiyalanuvchini faol bo'lishiga unday olganligi;

Tarbiyachi kundalik rejaga asosan tarbiyalanuvchilarning o'z xohish-istaklariga ko'ra rivojlantiruvchi markazlarni tanlash imkonini berganligi;

Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarga o'quv materiallarni tanlash imkonini berilganligi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni boshqa rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyatini rag'batlantirgan holda uning qiziqishi sust bo'lgan tomonlarini rivojlantirishga undaydi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilardan mavzu asosida ularning kuzatish va amaliy jarayondagi fikrlarini so'raganligi, o'z fikr va xohishlarini ifoda qilishga unday olganligi;

Guruh uchun rejalashtirilgan faoliyat turini bajarish bolalar uchun qiyinlik qilsa, tarbiyachi faoliyat turini ular bajara oladigan boshqa topshiriqqa o'zgartirdimi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda qo'rquv, g'azab va boshqa salbiy tuyg'ular vujudga kelgan hollarda ularni yengish yo'llarini o'rgatganligi;

Tarbiyachining bolalarga nisbatan teng va samimiy munosabatda bo'lishi;

Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarda gender stereotiplariga muvofiq rollarni taqsimlaganligi;

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning guruhda faoliyat olib borilayotgan ta'lim tilida muloqot qilishga chaqirganligi va mashg'ulot davomida tushunarsiz bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohlab berganligi;

Tarbiyachining mashg'ulot davomida kitoblardan foydalangan holda bolalarga kitob o'qib berganligi;

Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi maksimal 5 ball bilan baholanadi.

Tarbiyachi-pedagoglarning dars mashg'ulotlarini tahlil qilishda yakuniy maksimal 125 ballni tashkil etadi.

Ekspertlar tomonidan o'tkazilgan mashg'ulot tahlillari natijalari umumlashtirilgan holda tarbiyachi-pedagoglarning tahlil natijalari berilgan 3-jadvalga kiritiladi hamda komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

b) Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tashqi baholash jarayonida faoliyat olib borayotgan barcha fan o'qituvchilarining dars mashg'ulotlari tahlil qilinadi.

Dars tahlil qilinishida quyidagilar inobatga olinishi tavsiya qilinadi:

O'qituvchilar dars mashg'ulotini o'quv rejaga muvofiq tashkil qilganligi. Bunda o'qituvchi

o'tayotgan dars mavzusi e-maktab platformasidagi mavzuga mos kelishi o'rganiladi. Ushbu ko'rsatkich maksimal 15 ball bilan baholanadi.

O'qituvchi dars jarayonida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanganligi; (15 ball)

O'qituvchi dars jarayonini hayotga bog'lagan holda (kompetensiyaviy yondashuvlar asosida) tashkil etganligi; (10 ball)

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishiga erishganligi. Ushbu mezonda o'qituvchi interfaol usullardan samarali foydalana olishi, dars jarayonida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishi, mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlay olish darajasi hisobga olinadi hamda maksimal 10 ball bilan baholanadi.

Zamonaviy texnologiyalar va Internet manbalari hisobga olingan holda dars mashg'uloti tashkil etilganligi; (10 ball)

O'qituvchi har bir o'quvchining mashg'ulot davomida ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaganligi; (15 ball)

O'qituvchi dars jarayonida har bir o'quvchining o'z fikri, istaklari, g'oyalari va munosabatlarini ifoda etishiga imkoniyat yaratganligi; (15 ball)

O'qituvchi o'z vaqtida o'quvchilar davomatini aniqlash, o'quvchilarning faolligiga qarab baholash hamda kelgusi dars mashg'uloti uchun uyga vazifalarni elektron jurnalga qayd etganligi; (10 ball)

Fan o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarini tahlil qilishda yakuniy maksimal ball 100 ballni tashkil etadi.

Ekspertlar tomonidan o'tkazilgan dars tahlillari natijalari umumlashtirilgan holda fan o'qituvchilarining tahlil natijalari berilgan 4-jadvalga kiritiladi hamda komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA‘LIMI VAZIRLIGI, VILOYATLAR HAMDA TOSHKENT SHAHAR
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI TASHQI ATTESTATSIYA
KOMISSIYASI TOMONIDAN XULOSANI TAYYORLASH TARTIBI**

Ta‘lim tashkilotida yakunlangan attestatsiya jarayonlari bo‘yicha tashqi baholash komissiyasi yakuniy xulosalar tayyorlaydi. Bunda ta‘lim tashkiloti xodimlarining komissiya faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ekspertlar guruhi “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarining baholash ko‘rsatkichlari va umumiy ballarni hisoblash metodikasi”da belgilangan **4 ta soha**, “Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarining baholash ko‘rsatkichlari va umumiy ballarni hisoblash metodikasi”dagi **6 ta soha** bo‘yicha tashqi baholash yakunlari yuzasidan natijalar umumlashtiriladi. xulosa hamda tashqi baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha “Chora-tadbirlar rejasini” tayyorlanadi.

Jumladan, tashqi baholash natijalari asosida attestatsiya komissiyalari tomonidan ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim sifatining davlat ta‘lim standartlari va davlat ta‘lim talablariga muvofiqligi yuzasidan xulosa **2 kun muddatda**, ta‘lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini **1 kun muddatda** tayyorlanadi.

Xulosa va chora-tadbirlar rejasini tayyorlangandan so‘ng **2 kun muddatda** tashqi baholash komissiyasi tomonidan ta‘lim tashkilotining pedagogik jamoasini baholash natijalari bilan tanishtirish maqsadida navbatdan tashqari pedagogik kengashi o‘tkaziladi va natija bilan tanishtiriladi.

Bundan tashqari, ta‘lim tashkilotlarining tegishli yo‘nalish bo‘yicha o‘quv jarayonini amalga oshirishga tayyorligi yuzasidan vakolatli organlar tomonidan berilgan xulosalar Vazirlik so‘roviga muvofiq 5 ish kuni ichida onlayn platformaga joylashtiriladi.

Xulosa berishga vakolatli organlar tomonidan tegishli xulosani taqdim etish uchun obyektlarni joyiga chiqib o‘rganish talab etilsa, faqat o‘zining faoliyat yo‘nalishiga tegishli qismi bo‘yicha o‘rganish o‘tkazishi mumkin. Ta‘lim tashkilotlari joyiga chiqib o‘rganish uchun xulosa berishga vakolatli organlarga tegishli sharoitlarni yaratib berishi kerak.

Vakolatli organlar belgilangan muddatlarda xulosa taqdim etmagan hollarda, ijobiy xulosa olingan deb hisoblanadi va ichki baholash natijalari e‘tiborga olinadi. Bunda xulosa berishga vakolatli organlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi.

Attestatsiya komissiyalari ta‘lim tashkilotlari rahbariyati bilan birgalikda tashkilot faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tuzilgan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar har yil yakunida onlayn platformaga kiritib boriladi.

Attestatsiyadan o‘tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda, ta‘lim tashkilotiga berilgan akkreditatsiya sertifikatini bekor qilinadi. Bunda ta‘lim tashkiloti navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkaziladi.

Tashqi baholashdan keyingi tadbirlar

Tashqi baholash yakuni bo‘yicha tashqi komissiya a‘zolari tomonidan quyidagi hujjatlar Akkreditatsiya komissiyasi uchun ikki nusxada tayyorlanadi:

1. Tashqi baholash komissiyasining tavsiya xati;
2. Ta‘lim tashkiloti guvohnomasi;
3. Baholash jarayonini tashkil etish bo‘yicha buyruq (ichki va tashqi baholash);
4. Tashqi baholash natijalari asosida tayyorlangan xulosa;
5. Ta‘lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini;
6. Ta‘lim tashkilotining tashqi baholash natijalarini muhokama qilinganligi to‘g‘risida

Pedagogik kengash bayonidan ko'chirma;

7. Tashqi baholash jarayonida ekspertlar tomonidan tayyorlangan hujjatlarni ta'lim tashkiloti direktoriga topshirish to'g'risidagi dalolatnoma;

8. Tashqi baholash bo'yicha ilova hamda soha jadvallari.

Tashqi baholash natijalari yuzasidan to'plangan hujjatlarning bir nusxasi elektron va qog'oz shaklda rasmiy xat bilan vazirlikka yuboriladi.

a) qog'oz shakli — ta'lim tashkilotining ishonchli vakili yoxud pochta aloqasi xizmati orqali;

b) elektron shakli — ta'lim tashkiloti rahbarining elektron raqamli imzosi bilan vazirlikning rasmiy veb-saytidagi maxsus portal orqali yuboriladi.

Tashqi attestatsiyada tayyorlangan xulosalarni vazirlikka yetkazishga Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, Toshkent shahar va viloyat maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmalari mas'ul hisoblanadi.

Tashqi baholash komissiyasining qarori

Ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazish bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan ta'lim tashkiloti ustavida belgilangan vazifalarning hamda davlat talablarining bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2024-yil 14-fevraldagi 91-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomga muvofiq** quyidagi xulosalardan biri qabul qilinadi:

1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish natijalariga ko'ra **"attestatsiyadan o'tdi"** deb e'tirof etiladi:

rivojlanish darajasi kuzatilgan tarbiyalanuvchilarning 55 foizi va undan ko'pi ijobiy baholanib, maktabgacha ta'lim tashkilotini attestatsiyadan o'tkazish mezonlarida belgilangan umumiy ballning 55 foizi va undan yuqori ball to'plaganda;

"attestatsiyadan o'tmadi" deb e'tirof etiladi:

rivojlanish darajasi kuzatilgan tarbiyalanuvchilarning 45 foizi va undan ko'pi qoniqarsiz baholanganda (*bajarilgan indikatorlar soni kuzatilgan indikatorlar soniga nisbatan 55 foizdan kam bo'lsa*);

maktabgacha ta'lim tashkilotini attestatsiyadan o'tkazish mezonlarida belgilangan umumiy ballning 55 foizidan past baholanganda;

tashqi baholash komissiyasi va uning qoshida tashkil etilgan ekspertlar guruhi tomonidan ichki va tashqi baholash natijalari belgilangan jadval asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil natijalariga ko'ra, 3 ta yoki undan ko'p mezonlar bo'yicha ichki va tashqi baholash natijalari o'rtasidagi farq -45 foiz va undan yuqori bo'lganda yoki barcha 19 ta ko'rsatkichlar bo'yicha ichki va tashqi baholash natijalari o'rtasidagi farq -30 foiz va undan yuqori bo'lganda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari **"attestatsiyadan o'tmadi"** deb e'tirof etilganda:

davlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining malakasi yetarli emas deb topiladi hamda ish beruvchi tomonidan u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinadi;

davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi faoliyatiga bir yil to'lmagan rahbar majburiy ravishda navbatdan tashqari malaka oshirishga yuborilib, davlat maktabgacha ta'lim muassasasi bir yildan keyin qayta attestatsiyadan o'tkaziladi hamda davlat maktabgacha ta'lim muassasasi uning natijalariga ko'ra attestatsiyadan o'tmagan taqdirda, rahbar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinadi;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari litsenziyasining amal qilishi belgilangan tartibda tugatiladi.

"attestatsiyadan o'tmadi" deb e'tirof etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini boshqa davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga ko'chirish choralari ko'riladi.

2) Umumiy o'rta ta'lim maktablarini attestatsiyadan o'tkazish natijalariga ko'ra, **"attestatsiyadan o'tdi"** degan xulosa quyidagi shartlar to'liq bajarilganda beriladi:

nazorat ishlarida qatnashgan o'quvchilarining 55 foizi va undan ko'pi ijobiy baholansa (baholashning yangi tizimi joriy etilgan maktablar uchun esa, ushbu maktabning 9 va 11-sinflari o'quvchilarining kamida 55 foizi qoniqarli baholangan bo'lsa, bunda 4-sinfda o'tkazilgan nazorat ishlari natijasi umumiy natijaga qo'shiladi);

umumiy o'rta ta'lim maktabini attestatsiyadan o'tkazish mezonlarida belgilangan umumiy ballning 55 foizi va undan ko'pini to'plaganda;

"attestatsiyadan o'tmadi" degan xulosa quyidagi hollardan biri sodir bo'lganda beriladi:

nazorat ishlarida qatnashgan o'quvchilarining 45 foizdan ko'pi qoniqarsiz baholansa (baholashning yangi tizimi joriy etilgan maktablar uchun esa, ushbu maktabning 9 va 11-sinflari o'quvchilarining 45 foizdan ko'pi qoniqarsiz baholangan bo'lsa, bunda 4-sinfda o'tkazilgan nazorat ishlari natijasi umumiy natijaga qo'shiladi);

umumiy o'rta ta'lim tashkiloti attestatsiyadan o'tkazish mezonlarida belgilangan umumiy ballning 55 foizidan kam ball to'plasa;

ichki baholash jarayonlari o'z vaqtida o'tkazilmaganda, hujjatlar belgilangan muddatlarda Attestatsiya komissiyasiga taqdim etilmaganda yoki hujjatlarda haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar mavjudligi aniqlanganda.

Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkiloti **“attestatsiyadan oʻtmadi”** deb eʼtirof etilsa:

davlat umumiy oʻrta taʼlim maktabi rahbari va rahbari oʻrinbosarlarining malakasi yetarli emas deb topiladi hamda ish beruvchi tomonidan ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari belgilangan tartibda bekor qilinadi;

davlat umumiy oʻrta taʼlim maktabida faoliyatiga bir yil toʻlmagan rahbar va rahbar oʻrinbosarlari majburiy ravishda navbatdan tashqari malaka oshirishga yuborilib, davlat umumiy oʻrta taʼlim maktabi bir yildan keyin qayta attestatsiyadan oʻtkaziladi hamda davlat umumiy oʻrta taʼlim maktabi uning natijalariga koʻra attestatsiyadan oʻtmagan taqdirda, rahbar va rahbar oʻrinbosarlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari belgilangan tartibda bekor qilinadi;

nodavlat umumiy oʻrta taʼlim maktablari litsenziyasining amal qilishi belgilangan tartibda tugatiladi.

“attestatsiyadan oʻtmadi” deb eʼtirof etilgan nodavlat umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarini boshqa davlat umumiy oʻrta taʼlim maktablariga koʻchirish choralarini koʻriladi.

_____ viloyati, _____ tumanidagi _____-sonli ta'lim tashkilotining
tashqi baholash natijalari bo'yicha tuman tashqi attestatsiya
komissiyasining
XULOSASI

“ _____ ” _____ 20__-y

_____ ko'chasi _____-uy

Tashqi baholash o'tkazilgan tashkilot:	-	_____ tumanidagi _____-sonli ta'lim tashkiloti
Tashqi baholash boshlangan sana	-	10.04.2024
Tashqi baholash tamomlangan sana	-	12.04.2024
Tashqi baholash o'tkazish uchun asos	-	Ta'lim tashkilotini 2024-yilda attestatsiyadan o'tkazish rejasi
Tashqi baholashda o'rganilgan davr	-	2022-2023-yillar va 2024-yilning o'rganish kuniga qadar

Tashqi baholashning maqsadi: Ta'lim tashkiloti faoliyatini attestatsiya mezonlari asosida baholash, ta'lim sifati va o'quvchilarning bilimini davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini aniqlash, maktab faoliyatidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish mezonlarining
baholash ko'rsatkichlari va umumiy ballarni hisoblash metodikasi**

T/r	Ko'rsatkichlar	Ball
I	TA'LIM-TARBIYA JARAYONI.	200
1-mezon	"Ilk qadam" davlat o'quv dasturining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etilganligi.	90
1	Dasturning tatbiq qilinganligi.	50
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq tashkil etilgan. (1-ilova natijasiga ko'ra 4,6-5 ball).</i>	50
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq to'liq tashkil etilmagan. (1-ilova natijalariga ko'ra 4-4,5 ball).</i>	25
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq qisman tashkil etilgan. (1-ilova natijalariga ko'ra 3,6-3,9 ball).</i>	15
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayoni rivojlanish sohalarini integratsiyalashtirishni hisobga olgan holda davlat talablari va davlat o'quv dasturiga muvofiq tashkil etilmagan. (1-ilova natijalariga ko'ra 3,5 va undan past ball).</i>	0
2	Tarbiyachilar tomonidan mavzuli reja asosida ta'lim-tarbiya jarayonlari tashkil etilishi.	10
	Tarbiyachilarning ish jurnalida yillik mavzuviy rejasi tegishli tartibda oylar, kunlar kesimida taqsimlangan.	10
	Tarbiyachilarning ish jurnalida yillik mavzuviy rejasi tegishli tartibda oylar, kunlar kesimida taqsimlanmagan.	0
3	Ta'lim-tarbiya jarayonida variativ va parsial dasturlardan foydalanilayotganligi.	10
	<i>Ta'lim-tarbiya jarayonida variativ va parsial dasturlar qo'llanilmoqda.</i>	10
	<i>Variativ va parsial dasturlardan biri tatbiq qilingan.</i>	5
	<i>Variativ va parsial dasturlar qo'llanilmaydi.</i>	0
4	5 ta rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilganligi va ularda bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilganligi.	20
	<i>5 ta rivojlantirish markazi shakllantirilgan va ularda bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilgan.</i>	20
	<i>5 ta rivojlantirish markazi shakllantirilgan, ammo bolaning mustaqil faoliyati uchun sharoit yaratilmagan.</i>	10
	<i>Shakllantirilmagan.</i>	0
2-mezon	Tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini kuzatish jarayonining tashkil etilganligi.	60
5	6-7 yoshdagi tarbiyalanuvchilarining kuzatuv kunida ko'rsatkichlarni bajara olishining rivojlanish xaritasida qayd etilgan natijalarga mosligi.	30
	<i>Bolaning rivojlanish xaritasidagi o'zlashtirish natijalari kuzatuv kunidagi natijalarga mos (2-ilova natijalari asosida, indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o'rtasidagi farq-25% va undan kam bo'lsa).</i>	30
	<i>Bolaning rivojlanish xaritasidagi o'zlashtirish natijalari kuzatuv kunidagi natijalarga qisman mos (2-ilova natijalari asosida indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o'rtasidagi farq-25%-45% bo'lsa).</i>	15

	<i>Bolaning rivojlanish xaritasidagi o'zlashtirish natijalari kuzatuv kunidagi natijalarga qisman mos (2-ilova natijalari asosida indikatorlarning rivojlanish xaritasidagi bajarilishi bilan kuzatuv kunidagi bajarilishi o'rtasidagi farq- 45% dan ko'p bo'lsa).</i>	0
6	Tarbiyalanuvchilarning kuzatishlari natijasida olingan ma'lumotlar asosida ta'lim va tarbiya jarayoni rejalashtirilganligi (mutaxassislariga yo'naltirilganligi).	20
	<i>Rivojlanish sohalari bo'yicha kuzatuv natijalariga asosan tarbiyalanuvchilar tashkilotdagi tegishli mutaxassislariga yo'naltirilgan.</i>	20
	<i>Rivojlanish sohalari bo'yicha kuzatuv natijalariga asosan tarbiyalanuvchilar tashkilotdagi tegishli mutaxassislariga yo'naltirmagan.</i>	0
7	6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi.	10
	<i>6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi 5 ta rivojlanish sohalari asosida yuritilgan va ota-onalarga tarqatilgan.</i>	10
	<i>6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi 5 ta rivojlanish sohalari asosida yuritilgan va ota-onalarga tarqatilmagan.</i>	5
	<i>6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi 5 ta rivojlanish sohalari asosida yuritilmagan va ota-onalarga tarqatilmagan.</i>	0
3-mezon	O'quv-metodik materiallarning (tarbiyalanuvchilarda foydalanish imkoniyatining) mavjudligi va qo'llanilish darajasi.	10
8	O'quv-metodik materiallari bilan ta'minlanganligi va rivojlanish sohalariga mosligi.	10
	<i>O'quv-metodik materiallari bilan ta'minlangan va rivojlanish sohalariga mos.</i>	10
	<i>O'quv-metodik materiallari bilan yetarli ta'minlanmagan.</i>	5
4-mezon	Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz, rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitining tashkil etilishi.	30
9	Tashkilotda kun tartibi ishlab chiqilganligi va sanitariya-gigiyena talablariga muvofiqligi.	15
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va barcha uchun ko'rinarli joyga ilingan.</i>	15
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq ishlab chiqilgan, lekin barcha uchun ko'rinarli joyga ilinmagan.</i>	5
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibi ishlab chiqilmagan</i>	0
10	Bolalarning uchun xavfsiz muhitni ta'minlanganligi hamda hududda ekologik ta'lim va tarbiya yo'lga qo'yilganligi (ekologik yo'lakcha).	15
	<i>Bolalarning hayoti va xavfsizligi ta'minlangan hamda hududda ekologik ta'lim va tarbiya yo'lga qo'yilgan (ekologik yo'lakcha).</i>	15
	<i>Bolalarning hayoti va xavfsizligi ta'minlangan, ammo hududda ekologik muhit mavjud emas.</i>	5
	<i>Bolalarning hayoti va xavfsizligi ta'minlanmagan.</i>	0
5-mezon	Maktabgacha ta'lim tashkilotida alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya muhiti (inklyuziya).	10
11	Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirilganligi.	10
	<i>Inklyuziv yo'nalishdagi ta'lim va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirilgan.</i>	10
	<i>Bolaning individual ta'lim marshruti mavjud, ammo belgilangan tartibda yuritilmayapti.</i>	3
	<i>Bolaning individual ta'lim marshruti mavjud emas hamda korreksion ishlar olib borilmagan.</i>	0
II	BOSHQARUV SIYOSATI VA KADRLAR SALOHİYATI.	150
6-mezon	Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini belgilovchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida boshqaruvning tashkil etilganligi.	50
12	Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan 3 yillik istiqbol rejasining mavjudligi.	5

	<i>Uch yillik istiqbol va unga muvofiqlashtirilgan oylik rejalari pedagogik kengashda ko'rib chiqilgan va joriy qilingan.</i>	5
	<i>Uch yillik istiqbol reja mavjud, ammo pedagogik kengashda muhokama qilinmagan.</i>	2
	<i>Istiqbol reja mavjud emas.</i>	0
13	Maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid xujjatlari	10
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlari mavjud, to'g'ri va maqsadli yuritilgan.</i>	10
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha boshqaruv va tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar mavjud, lekin to'g'ri yuritilmagan.</i>	0
14	Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlardan olingan so'rovnoma va uning natijalari.	5
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan ijobiy baholanganda.</i>	5
	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan xodimlar tomonidan qoniqarsiz baholanganda.</i>	0
15	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori ish hujjatlari.	5
	<i>Direktorning tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to'g'ri yuritilgan.</i>	5
	<i>Direktorning tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, ammo to'g'ri yuritilmagan.</i>	2
16	Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti va psixologining ish hujjatlari	5
	<i>Metodist va psixologning tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to'g'ri yuritilgan.</i>	5
	<i>Metodist va psixologning tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, ammo to'g'ri yuritilmagan.</i>	2
17	Maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi va til o'qituvchisining ish hujjatlari.	5
	<i>Defektolog va til o'qituvchisining tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to'g'ri yuritilgan.</i>	5
	<i>Defektolog va til o'qituvchisining tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to'g'ri yuritilmagan.</i>	2
18	Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi va musiqa rahbarining ish hujjatlari.	5
	<i>Jismoniy tarbiya yo'riqchisi va musiqa rahbarining tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to'g'ri yuritilgan.</i>	5
	<i>Jismoniy tarbiya yo'riqchisi va musiqa rahbarining tasdiqlangan ro'yxat asosida barcha ish hujjatlari mavjud, to'g'ri yuritilmagan.</i>	2
19	"Pedagogik kouching" hamkorligi yo'lga qo'yilganligi.	5
	<i>"Pedagogik kouching" hamkorligi bo'yicha buyruq ishlab chiqilgan va ijrosi ta'minlangan, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hujjatlar to'plami mavjud.</i>	5
	<i>"Pedagogik kouching" hamkorligi tashkil etilgan, ammo ijrosi ta'minlanmagan.</i>	2
	<i>"Pedagogik kouching" hamkorligi tashkil etilmagan.</i>	0
20	Ichki baholash tizimi yo'lga qo'yilganligi.	5
	<i>O'quv yili yakuniga ko'ra ichki baholash jarayonlari o'tkazilgan, natijalariga ko'ra hujjatlar yig'ma jildi mavjud.</i>	5
	<i>O'quv yili yakuniga ko'ra ichki baholash jarayonlari o'tkazilmagan.</i>	0
7-mezon	Rahbar va tarbiyachi pedagog kadrlar salohiyati.	70
21	Oliy ma'lumotli va malaka toifali pedagoglar ulushi.	20
	<i>85-100 %ni tashkil etsa.</i>	20
	<i>65-84 %ni tashkil etsa.</i>	10
	<i>50-64 %ni tashkil etsa.</i>	5
	<i>49 % va undan kam bo'lsa.</i>	0
22	Ajratilgan shtat birligi bo'yicha xodimlar bilan to'ldirilganlik holati.	20
	<i>86-100 % ni tashkil etadi.</i>	20
	<i>71-85 %ni tashkil etadi.</i>	15
	<i>56-70 %ni tashkil etadi.</i>	5

	55 % va undan kam.	0
23	Pedagoglarning lavozimi bo'yicha malaka talablari.	20
	Barcha pedagoglar malaka toifasiga mos.	20
	Bir nafar pedagog nomutaxassis bo'lsa ham.	0
24	Pedagoglar va ularning tarbiyalanuvchilari tomonidan turli darajadagi tanlov va musobaqalardagi natijalari.	10
	Respublika bosqichida sovrinli o'rinlarni olgan pedagoglar (1-, 2-, 3-o'rinlar).	10
	Viloyat (shahar) bosqichida sovrinli o'rinlarni olgan pedagoglar (1-, 2-, 3-o'rinlar).	6
	Tuman/shahar bosqichida sovrinli o'rinlarni olgan pedagoglar (1-, 2-, 3-o'rinlar).	2
	Umuman qatnashmagan.	0
8-mezon	Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvatiga mutanosibli.	30
25	Tarbiyalanuvchilar sonining maktabgacha ta'lim tashkiloti quvvatiga mutanosibli.	20
	Tarbiyalanuvchilarning soni quvvatga muvofiq.	20
	Tarbiyalanuvchilarning soni quvvatga nisbatan 1.1-1.2 koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.	15
	Quvvatga nisbatan 1.2-1.5 koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.	10
	Quvvatga nisbatan 2 barobar ortiq koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.	5
	Tarbiyalanuvchilarning soni quvvatdan past koeffitsiyentda faoliyat ko'rsatadi.	2
26	Tarbiyalanuvchilar davomati (bir haftalik davomatning o'rtachasi).	10
	Davomat 86 % va undan yuqori bo'lsa.	10
	Davomat 65 % – 85 % oralig'ida bo'lsa.	5
	Davomat 51 % – 65 % oralig'ida bo'lsa.	2
	Davomat 50 % va undan past bo'lsa.	0
III	RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITI.	120
9-mezon	Moddiy-texnika bazaning holati va tarbiyalanuvchilar rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar.	50
27	Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining ta'mirlanganligi.	5
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining saqlanishi qoniqarli holatda .	5
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining foydalanish qismida yaroqsiz holga kelgan joy mavjud bo'lsa.	0
28	Maktabgacha ta'lim tashkilotining ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi.	5
	Uzluksiz ichimlik suvi bilan ta'minlangan (quvurlar orqali).	5
	Bir kunda cheklangan muddatlarda suv bilan ta'minlangan.	3
